

**O'ZBYOKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



**BUXORO OZIQ-OVQAT VA ENGIL SANOAT
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

"Marketing" kafedrası

TADBIRKORLIK ASOSLARI

**"Biznes va boshqaruv" fakul'tetining Kasb ta'limi (Menejment, Marketing va
Iqtisodiyot) yunalishlari bakalavrlari uchun**

MA'RUZALAR MATNI

BUXORO - 2007 y

Takrizchilar:

Xamroev X.R.

Buxoro Davlat Universiteti

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti.

Abdullaev A.A.

Menejment kafedrası dotsenti

To'zuvchi:

dotsent Ro'zieva D.I.

assistent, Toshev F.Z.

Ma'ro'zalar matni "Marketing" kafedrasining yigilishida (bayonnoma N __ __. 11. 2007 y.) ko'rib chikildi va Buxoro OO va ESTI uslubiy kengashi (bayonnoma N__ ____ yil) karoriga asoslanib chop etishga tavsiya etildi.

A N N O T A T S I Y A

Mazkur ma'ro'zalar matni "Tadbirkorlik asoslari" fanining namunaviy va ishchi dasturlarida keltirilgan mavzular asosida yoritilgan bo'lib, bunda tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy xuquqiy shakllari, uning asoslari, tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, tijorat faoliyati doirasida yoki tadbirkorlik muxitida yozaga kelgan tashkiliy muammolari batafsil yoritib berilgan. Tadbirkorlik, tijorat sohasida xujalik sub`ektlarini tashkiliy jixatdan to'g'ri rasmiylashtirilishi, noaniq xavf-xatar va tavakkalchilik sharoitida tadbirkorlikning strategiyasi va taktikasini tanlash yullari ko'rsatib o'tilgan.

Keltirilgan masalalar O'zbyokiston Respublikasining xududiy o'ziga xos xususiyatlari xamda xo'jalik faoliyatining ayrim soxalari, mulkchilik va xujalik yuritish shakllarini xisobga olgan xolda ko'rib chiqilgan.

Ushbu ma'ruzalar matni barcha kasb ta'limi (iqtisodiyot, marketing, menejment) yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavrlarga mo'ljallangan.

MUNDARIJA

KIRISH

1-MAVZU. "TADBIRKORLIK VA TIJORAT ASOSLARI" FANINING PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI.....

2-MAVZU: TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY XUQUQIY SHAKLLARI

3-MAVZU: TADBIRKORLIK FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN XIMOYA KILINISHI.....

4-MAVZU: TADBIRKORLIK TAVAKKALCHILIGI VA UNI SUGURTA QILISH USULLARI. TIJORAT XUQUQI ASOSLARI

5-MAVZU: TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ITILISHINING ASOSIY BOSKICHLARI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNESNING O'RNI.

6-MAVZU: TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BIZNES REJA.....

7-MAVZU: TADBIRKORLIK TO'ZILMALARINING TASHKILY TO'ZILISHI VA KADRLAR STRATEGIYASI.....

8-MAVZU: TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MOLIYAVIY XOLATI.....

9-MAVZU: TADBIRKORLIKDA MARKETING FAOLIYATINING ASOSIY YUNALISHLARI .

K I R I SH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida biznesga, yorqin tadbirkorlikka asoslangan iqtisodi shakllanadi. Biznesning eng asosiy unsuri tadbirkorlikdir.

O'zbyokiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatiga va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilmokda. O'zbyokiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlashga aloxida e'tibor berilishi lozim", ayniqsa "Biz kichik biznesga, xuquqiy tadbirkorlikka nisbatan respublikamizni itisodiy jixatdan jadal rivojlantirishni ta'minlaydigan omil deb qaramog'imiz lozim", deb ta'kidlaydilar.

1995 yil 21 dekabrda O'zbyokiston Respublikasi Oliy majlisi sessiyasida qabul qilingan, "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonunda tadbirkor va ishbilarmonlar uchun yanada kuprok imtiyozlar va kafolatlar berildi. Bu o'z navbatida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ishchanligini yanada faollashtirishga, mamlakat yalpi milliy maxsuloti xajmini oshirishga inflyatsiya jarayonlarini syokinlashtirishga iqtisodiyotni barkarorlashtirish va rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Bu fan muayyan iqtisodiy fanlar bilan: korxonalarda ishlab chiqarishni rejalashtirish, menejment, boshqaruv faoliyati asoslari, buxgalterlik xisobi, moliya va kredit, statistika, rejalashtirishning iqtisodiy-matematik usullari kabi kuplab fanlar bilan chambarchas bog'lik. Ushbu fanning vazifasi iqtisodiy bilimlarning amaldagi yutuqlaridan tadbirkorlik faoliyatida maksadga muvofiq foydalanio, uning natijasida kichik korxonalarning samaradorligini oshirish, jaxon bozoriga raqobatbardosh, sifatli turli xildagi maxsulotlarni etkazib berishni ta'minlash va xalk farovonligini oshirishdir.

Bu yunalishda zarur bulgan moddiy texnika bazani "Tadbirkorlik asoslari" fani orkali olish mumkin. shu sababli talabalarga "Tadbirkorlik asoslari" fani 18 soat ma'ro'za va 18 soat amaliyot mashg'ulot shaklida o'quv rejasiga kiritilgan.

I - MAVZU. TADBIRKORLIK ASOSLARI FANINING PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI/

REJA

1. Tadbirkorlik va biznes haqida tushuncha.
2. Tadbirkorlik predmeti, uning turlari, sub'ektlari, shakllari va uning taraqqiyot topish yo'nalishlari.
3. Tadbirkorlikning xuquq va majburiyatlari va uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.
4. Mulkiy javobgarlik va tadbirkorlik faoliyatining to'xtatilishi.
5. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan yo'lga solish va nazorat kilish chora tadbirlari.

FOYDALANILGAN ADABIETLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbyokiston XXI asrga intilmokda. O'zbyokiston.T-1999 yil.
2. Karimov I.A. O'zbyokiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. O'zbyokiston. Toshkent 1998 yil.
3. Gulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'zbyokiston.T-1997 yil.
4. Yo.Abdullaev, F.Karimov "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" Toshkent "Mehnat" 2000 yil.
5. Tadbirkorlik va kichik biznes. Gulomov S.S. Toshkent 2000 y.
6. Tadbirkor yon daftari "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". Toshkent 1999 y.
7. Muxiddinov D.M. Hamroqulov O.M. va boshqalar "Tadbirkorlik asoslari " fanidan o'quv qo'llanma, Buxoro 2002 yil "Muallif"

TADBIRKORLIK VA BIZNES HAQIDA TUSHUNCHA

Tadbirkorlik faoliyati bozor xo'jaligining ajralmas qismi qisoblanadi. Tadbirkorlik tarixi juda o'zoq o'tmishga borib taqalsada, uning qozirg'i zamon tushunchasi kapitalizmning vujudga kelishi va rivojlanishi davrida shakllanadi.

Burjua klassik siyosiy iqtisodida "Tadbirkorlik" tushunchasi XVIII asrda paydo buldi va ko'pincha "Mulkdor" iborasi bilan bir xil tushunilgan. Xususan A.Smit tadbirkorlikni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadini ko'zlab tavakkalchilik bilan ish ko'ruvchi mulkdor deb xarakterlaydi. U o'zini ishlab chlarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, uning natijalariga egalik qiladi.

Keyinchalik real xo'jalik hayotida qatnashuvchi kapitalning mulkdor kapitaldan ajralib chiqishi natijasida "tadbirkorlik" tushunchasi "mulkdor" tushunchasiga to'g'ri kelmay qoladi .

J.B. Sey tadbirkorlikni ancha keng ta'riflaydi. Uning fikricha, tadbirkor eng ko'p mahsulot olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini bir-biriga uyg'unlashtirish ishlari bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy gumashta (agent). Avstriya maktabining ko'zga ko'ringan namoyondalari (I.SHumleyter, F.Xayeka) asarlarida tadbirkor xo'jalik yurituvchining o'ziga xos ijtimoiy psixologik tipi shaklida talqin qilinadi. Ular uchun asosiysi turli-tuman bozor imkoniyatlarini tahlil qilish va foydalanish, navotorlik g'oyalarini amalga oshirish va x.k. Masalan, I.SH.SHumleyter tadbirkorlik bu ish turi emas, balki tabiatan aql to'zilishi va xossasi deb hisoblaydi.

Hozirgi zamon g'arb adabiyotida ham tadbirkorlik foyda olish maqsadini ko'zlab xo'jalik yuritish san'ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning yorqin namoyon

bo'lishi, navotorlik, xavf-xatarga doim tayer bo'lish va shu kabi ko'p qrrali tomonlari bilan qaraladi.

Hozirgi kunda bizning iqtisodiy tafakkurimizning aniqrog'i boshqarish nazariyasi ham adbirkorlik faoliyatini shunday tushunish tomon bormokda. SHu bilan birga tovar, raqobatli xo'jalik to'qilishi sharoitida ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish to'g'risida gap ketganda, so'zsiz shaxsiy mahorat, zexn, qiziqish asosiy rol' o'ynaydi. SHu sababli bizning respublikada tadbirkorlikka yo'l ochuvchi va uning sub'ektlari xuquq va majburiyatlari tartibga soluvchi birinchi qonuniy hujjatda bu faoliyat turli mulkiy mas'uliyat ostida foyda olish uchun fuqoro uyushmalarining mustaqil tashabbuskorlik faoliyati sifatida ta'riflanadi.

Aniqroq aytganda tadbirkorlik-mulk sub'ektlarining foyda olish maqsadida tahluka (tavakkalchilik) bilan hamda mulkiy javobgarlik asosida, amaldag'i qonunlar doirasida o'z tashabbusi bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatish va uni muvofio'lashtirish.

Bunda tadbirkorlikning sof kapitalistik ekspluatatorlik mohiyatiga olib keluvchi, an'anaviy sinfiy xarakteristikasi emas, balki inson faoliyatining shu sohadagi funktsional vazifasi, uning jamiyatda tutadigan o'rni va ijtimoiy roli ko'zda tutiladi.

Tadbirkor bozordagi ehtiyoj yoki istakni qondirish imkoniyatlarini oldindan ko'ra oladi va ularni qondirish niyatida zarur bo'lgan sarmoyalarni jalb qiladi, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish jarayonida birlashtiradi.

Agar tadbirkorlik faoliyati uning maqsadi va vazifalari tomonidan yondashilib talqin qilinsa, u avvalo bozor xo'jaligi iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiruvchi gumashta sifatida gavdalanadi.

Yanada aniqroq ma'noda u bozor iqtisodietining alohida bug'inlarida takror ishlab chiqarish borasida xizmat qiluvchi va faoliyat ko'rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy, xuquqiy va boshqa xo'jalik munosabatlarining majmuidir. Ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan mulk va boshqa boyliklar tadbirkorlik faoliyatisiz o'zini iqtisodiy jixatdan to'la namoyon qilmaydi va shubhasiz, tovar ishlab chiqaruvchilarga etarli daromad keltirmaydi. SHu sababli tadbirkorlik obrazli qilib aytganda, har bir xo'jalik bug'inlari hayotiy faoliyatini saqlab turuvchi va "buyumlarni ijtimoiy ayirboshlashni ta'minlovchi bozor xo'jaligining qon aylanishi sistemasidir".

Tadbirkor-bu dadil, muhim va murakkab maqsadlarni ryobga chiqarishga jazm etib, yangi qoyalarni amalga oshirish bilan bog'liq butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib tavakkal ish brituvchi shaxsdir.

Tadbirkorlik- bu mulkchilik sub'ektlarini foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir.

Biznes- bu puldan pul keltirib chiqarishdir. P-T-P ya'ni ruxsat etilgan, jamiyat a'zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shug'llanib, pul, daromad topishni bildiradi.

Tadbirkorlikning biznesdan farqi

Tadbirkorlik	Biznes
Tashabbuskorlik, uddaburonlik, epchillik, ijodiy faoliyatda izlanuvchanlik;	Faoliyatni tiklashga, erishgan yutuqni mustaxkamlashga intilish
Ўз ғоясига эга киши	Foyda keltiruvchi faoliyatga ega qilish
Boshlang'ich kapitalga ega bo'lmasligi ham mumkin	Kapitalga ega qilish
Tavakkalga moyil, ijodkor, iqtidorli kishi	Barqarorlikka intiluvchi, fikirlash va hatti-harakatida konservator, menejer mahorati bor kishi.
Tadbirkorlik foydasini olish	Kapital daromadini olish
Hayoda kamdan-kam uchraydi	Hayotda tez-tez uchraydi.

Genri Fordning fikri Tadbirkor-bu o'zining mustaqil qoyasiga ega bo'lgan kishidir.

Amerikaliklar tadbirkorlarni millatning "oltin fondi" deb ataydilar.

Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik biznesi- bu mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish orqali daromad topishni ko'zlovchi faoliyatdir.

"Tadbirkorlik to'g'risida" gi qonunga asosan tadbirkorlik fuharolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo'lib, u fuqaroning o'z nomidan, o'zining tavakkalchiligi bilan, hamda o'zining yoki yuridik shaxsning (korxonaning) mulkiy javobgarlik asosida amalga oshiriladi. shunday qilib, tadbirkor to'la yoki qisman moddiy mablag'iga va moliyaviy resurslarga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini (biznesni) tashkil qilish uchun ishga soladi. Uning tomonidan bunyod etilgan kichik biznesning bir qismiga aylanadi.

2.TADBIRKORLIK PREDMETI, UNING TURLARI, SUBEKTLLARI, SHAKLLARI VA UNING TARAQQIYOT TOPISH YUNALISHLARI.

Tadbirkorlik tushunchasining mazmuni uning to'rtta o'zaro bog'liq vazifasini aniqlash bilan ochiladi.

1.Tadbirkor o'ziga tovar ishlab chiqarishning yagona jarayonida, kapital va Mehnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi. shubilan birga tadbirkor bir vaqtda ishlab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi va ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun boshqa resurslarini bir joyga keltiruvchi vositachi hisoblanadi.

2.Tadbirkor biznesni yuritish jarayonida o'ziga asosiy qarorlar qabul qilishdek qiyin vazifani oladi, bu qarorlar korxona faoliyatining maqsadini aniqlab beradi.

3.Tadbirkor-bu yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida kiritishga xarakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

4.Tadbirkor-taxlika (risk)ga boruvchi inson. Buni uning boshqa uchta vazifasini chuqur o'rganish ko'rsatadi. Bozor munosabatalariga asoslangan jamiyatda tadbirkorga foyda kafolatlanmagan. Uning sarflangan vaqti, kuchi va qobiliyati foyda yoki zarar bilan taqdirlanishi va hatto u sinishi hammumkin. qisqacha aytganda tadbirkor na faqat o'zining vaqti, Mehnati va ishchanlik layoqati, balki o'zi yoki o'z aksionerlari ishlab chiqarishga ko'ygan mablag'lar bilan tahlikaga boradi.

Tadbirkorlik ko'zatuvchi kuch daromad olish ishtiyoki bo'lib bu daromad ularga ishbilarmonlik firmalarini taraqqiy toptirish va o'z ishini kengaytirish, hamda unda ishlovchilarni moddiy rag'batlantirish uchun kerak bo'ladi. Ammo xorijiy rag'batlantirish uchun kerak bo'ladi. Ammo xorijiy tajribalarga ko'ra bu asosiy sabab hisoblanmaydi, balki, tadbirkorning daromad olmasdan, boshlangan ishini davom ettira olmasligi va korxonaning o'zidan o'zi taraqqiy tormasligi avvaldan ko'zda tutiladigan shart.

Tadbirkorlikning quyidagi turlari mavjud:

№	Tadbirkorlikni turlarga bo'lish belgilari	Tadbirkorlar guruxlari
1.	Yangi tovar yoki xizmatni loyixalashni tashkil etish bo'yicha tadbirkorlik	Innovasiya tadbirkorlari, ya'ni intellektual mulk egalari. Bu tadbirkorlar yangi tovar va xizmatlarni chiqarish jarayonlarinitakomillashtirish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish yo'zasidan ilmiy izlanishlarni olib boruvchi tadbirkorlar.
2.	Faoliyat yo'nalishi bo'yicha tadbirkorlik	Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar; tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar

3.	Qanday vazifani bajarishi bo'yicha tadbirkorlar	Ishlab chiqarishni boshqaruvchi tadbirkorlar moliya va suurt bilan shu?ullanuvchi tadbirkorlar, vositachilik bilan shu?ullanuvchi tadbirkorlar masla?at bilan shu?ullanuvchi tadbirkorlar
4.	Faoliyat turlarining` soni b'yyicha tadbirkorlik	Bitta sohadag`i tadbirkorlar k'yp sohadag`i tadbirkorlar
5.	Faoliyatning` murakkablig`i b'yyicha tadbirkorlik	Maxsus bilim talab ?ilmaydig`an faoliyat bilan shu?ullanuvchi tadbirkorlar; maxsus bilim talab ?ilinadigan faoliyat bilan shu?ullanuvchi tadbirkorlar; yu?ori texnolog`iya va nodir bilim talab ?iladig`an faoliyat bilan shu?ullanuvchi tadbirkorlar.
6.	Faoliyatning` tarmoq y'ynalishlari b'yyicha tadbirkorlik	Sanoat; ?ishlo? x'yjalig`i; ?irilish; Savdo va xizmat k'yrstish; Transport va bosh?a sektorlardag`i tadbirkorlar.

o'z ishini tashkil qilishda ustuvor sabab bo'lib, inson o'zining jamiyatdagi holati (mavqei)ni yaxshilash, o'zining va oilasining hayoti farovonligini oshirish uchun intilishi hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatiga turtki bo'ladigan boshqa sabablar qatoriga shaxsning o'zini ko'rsatishga, xalqning moliyaviy resurslaridan bir qismini, qo'shimcha Mehnat va boshqa resurslarni xo'jalik jarayoniga jalb qilishga imkon borligi, fuqarolarning qonuniy ravishda o'z daromadlarini oshirishga, qo'shimcha daromad keltiruvchi faoliyat turi bilan astoydil shug'ullanishga imkon borligi, kabi omillarni qo'shish mumkin.

Kichik biznesda quyidagi tadbirkorlik shakllari mavjud:

- faoliyati yo'nalishi bo'yicha: ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va innovatsion tadbirkorlik faoliyati;

- tadbirkorlikning qanday vazifani bajarishga yo'naltirilganiga qarab: ishlab chiqarishni boshqarish moliyalashtirish vositachilik va maslahatchilikka qaratilgan tadbirkorlik;

- faoliyat turlarining soni bo'yicha: bitta sohadagi va ko'p tarmoqli tadbirkorlik;

- faoliyat murakkabligi bo'yicha: maxsus bilim talab qilmaydigan, yuqori texnologiyaga va nodir bilimga asoslangan tadbirkorlik;

- faoliyatning tarmoq yunalishlari bo'yicha: sanoat, agrosanoat, qishloq xo'jaligi, kurilish va boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi tadbirkorlik.

Tadbirkorlikning subektlari jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar deb o'ziga tegishli aloxida mulkka ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va nomulkiy xuquq va majburiyatlarni oladigan, sudda, arbitrajda va xakamlik sudida da'vogar va javobgar bo'laoladigan tashkilotlarga aytiladi.

Yuridik shaxsning quyidagi belgilari bo'ladi: o'z nizomining borligi; yuridik shaxs bo'lib davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi tegishli mol-mulkining borligi; bankda aloxida hisob raqamining bo'lishi; o'z belgisi tushirilgan dumaloq muxri va burchak shtampining zarur xollarda, tegishli ish kog'ozlari va firma belgilarining borligi.

Yuridik shaxslar deb o'ziga tegishli aloxida mulkka ega bo'lgan o'z nomidan mulkiy va nomulk xukumlarni va majburiyatlarni oladigan sudda arbitajda va xakamlik sudida davogar va javobjgr bo'laoladigan tashkilotlarga aytiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining quyidagi shakllari mavjud

- xususiy tadbirkorlik jismoniy yoki yuridik shaxslar (korxona) tomonidan amalda o'zining shaxsiy (xususiy) mulki asosida tashkil qilinadi

- jamoa tadbirkorlikligi - fuqarolar guruxining jamlanma mulki asosida tashkil qilinadi,

- aralash tadbirkorlik - bitta (yoki bir necha) yuridik shaxs (korxona) va bir necha jismoniy shaxslar mulkini birlashtirish asosida tashkil qilinadi:

- qo'shma tadbirkorlik - ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslar (shu jumladan chet el korxonalari) mulkini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilindi

- shartnomaviy tadbirkorlik - mulk egasi bo'lmagan korxona raxbari(yoki boshqa mas'ul lavozimdagi xodim-menejer) tomonidan shartnoma asosida amalga oshirildi. Bunda mulk egasi

yoki uning ishonchli vakili (idorasi) tomonidan ishlab chiqarish uyutirish va boshqarish bo'yicha belgilangan xuquq majburiyatlar va javobgarlik ishga olingan tomondan ya'ni korxona raxbari yoki boshqa mas'ul lavozimdagi xodimga yuklanadi.

- korxona raxbari (yoki menejer) xuddi ishbilarmon fuqaroga mos tartibda ro'yxatga olinadi va u kabi mas'uliyatga ega bo'ladi.

Tadbirkorlikning taraqqiyot topish yunalishlari.

Tadbirkorlikning rivojlanishi o'z navbatida bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari etadi.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning subektlarida xo'jalik yuritishning u yoki bu turini tanlash bo'yicha, ishlab chiqarish dasturini aqlantirish, moslashtirish, manbaalarni tanlash, resurs topish, mahsulotni sotish, ularga baxo belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum xuquq va yorqinliklar mavjud bo'lishini bildiradi. Boshqacha aytganda, tadbirkor xo'jalik yuritishning iqtisodiy subekti bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik xuquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati hammulkdorning o'zi tomonidan, ham uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subekti tomonidan amalga oshirilish mumkin. Keyingi xolat mulkdor va tadbirkor urtasida shartnoma to'zilgandan keyin mulkdorning korxona faoliyatiga aralashuviga yo'l ko'yilmaydi.

Xo'jalik yuritish xuquqi, ya'ni mol-mulkidan foydalanish va daromadni tasarruf qilish, korxonada takror ishlab chiqarish jarayoni boshqarishning muxim shart-sharoitini tashkil qiladi.

Ma'lumki, tadbirkorlikning vazifasi nafaqat foyda olishga, balki uni qaysi maqsadlarda ishlatish va samarali sarflash yo'llarini topishga qaratiladi, ya'ni u iste'mol-taqsimotchi nuqtai nazaridan emas, balki raqobatchilikni saqlab turish, ho'jalikni takomillashtirish, kengaytirish va shu kabilarni amalga oshirishga asoslanadi.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini yorqin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni real ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muxit va ijtimoiy-siyosiy sharoit yaratishi zarur. Kengroq ma'noda tadbirkorlarning butun sistemasini ta'minlab turishni xo'jalik yuritishning bozor raqobati sharti zarur qilib qo'yadi. Jaxon tajribasining ko'rsatishicha, tadbirkorlik faoliyati xatto yaxshi xuquqiy baza mavjud bulgan taqdirda ham, agar unga mos ijtimoiy-iqtisodiy sharoit etishmasa, ytarli darajada rivojlanmasligi mumkin. Ma'lumki, bozor va tadbirkorlar bir pastda paydo bo'lmaydi. Uni buyruq yoki xukumat qarorlari bilan kiritib bo'lmaydi, shu bilan birga, pulsiz, tovar, kapital va o'zining asosiy tartibga soluvchisi raqobatsiz mavjud bo'lmaydi.

Turtinchidan, yorqin tadbirkorlik mulkchilik va o'zlashtirishning turli tuman shakllari, turlari vazifalarini taqozo qiladi. o'z navbatida turli tumanlikning o'zi ob'ektiv xodisa bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibatida chiqadi.

Ytarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakali tayorgarlikka ega bo'lish, umumiy tijort qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlar, tadbirkorlik mintaqasi va uni rivojlantirishdan jamiyat manfaatdorligining mavjud bo'lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning shart-sharoitlari hisoblanadi.

Tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillar quyigilardan iborat:

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlarining bozor munosabatlariga o'tishi va iste'mol bozorining yaratilishi. manfaat va talab doirasini kengaytiradi va faqat ommaviy talabdagi tovar va xizmatlarga bulgan extiyojni yaratib qolmay, balki individual talab bo'lgan narsalarga extiejni ham tug'diradi. Bunday talab va extiyojlarni tez va sifatli qilib faqat kichik korxonalargina qondira oladi.

2. Tadbirkorlarning mulki, xuquqi va iqtisodiy manfaatlarining idoralar kafolatining mavjudligi.

3. Ishbilarmonlikning davlat tomonidan soliq, moliyaviy kredit va amortizatsiya siyosati orqali munosib qo'llab-quvvatlanishi.

- 4.Davlat va munitsipal korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish,xususiylashtirish va kichik firmalarni bunyod etish;
- 5.Kam daromad, past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi korxonalar bankrotlikga uchrashining aniqligi va ular asosida xususiy kichik korxonalar tashkil qilish;
- 6.Davlat ijtimoiy-siyosiy jixatdan barqaror xolati (xorijiy kapitalni jalb qilishda kumaklashadi).
- 7.Jamiyatning`` tadbirkorlik to'g'risidagi ijobiy muruvvatli fikri;
- 8.Ishbilarmonlikning tashkiliy-xuquqiy shaklini to'g'ri tanlash;
- 9.Bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi (turli innovatsion markazlar, banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari, reklama agentliklari va x.k) tezkorlik bilan taraqqiy topishi.

Ishbilarmonlarni ko'zatuvchi kuch daromad olish ishtiyoqi bo'lib bu daromad ularga ish bilarmon firmalarini taraqqiy totirish va o'z ishini rag'batlantirish uchun kerak bo'ladi. Ammo xorijiy tajribalarga ko'ra bu asosiy sabab hisoblanmaydi, balki tadbirkorning daromad olmasdan, boshlagan ishini davom ettira olmasligi va korxonaning o'zidan-o'zi taraqqiy topmasligi avvaldan ko'zda tutilishi shart.

3. TADBIRKORLIKNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI VA UNING DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLANISHI.

"Tadbirkorlik to'g'risidagi qonun da kichik biznes va tadbirkorlik to'zilmalari uchun,ularning tashkiliy-xuquqiy shakllaridan qat'iy nazar,umumiy bulgan xuquq va majburiyatlarni ajratib kursatish mumkin. Bu qonunga asosan xar qanday ish bilarmonlik subekti kuyidagi xuquqlarga ega:

- mamlakat qonunlari, Oliy kengash qarorlari va davlat boshqaruv organlari xujjatlari bilan man etilmagan xar qanday xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish:
- qonunga qarshi bo'lmagan xar qanday korxona yoki tashkilot bunyod etish:
- tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun shartnoma asosida begona fuqarolarni, korxona, tashkilotlarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini, pul vositalarini va ba'zi bir mulkka bulgan xuquqlarini jalb etish:
- qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mulk bilan begona xo'jalik subektlarining faoliyatida ishtirok etish:
- respublikadagi joriy qonunlar va to'zilgan shartnomalar asosida o'zining ho'jalik dasturi mustaqil shakllantirish, o'z maxsuloti uchun iste'molchi va ta'minlovchini mustaqil tanlash, kursatadigan xizmatiga ta'rif va maxsulotiga narxlarni mustaqil belgilash"
- ishlovchilarni amaldagi qonun va mexnat shartnomasi asosida ishga qabul kilish va ishdan bushatish:
- yollangan shaxslar uchun mexnatiga xaq to'lash va boshqa daromad turalari shakllarini, tarkibini va miqdorini belgilash:
- o'zining pul vositalarini saqlash va barcha turdagi xisob kitob, kredit operatsiyalarini bajarish uchun banklarda xisob raqamlarini ochish:
- ish bilarmonlik faoliyatidan kelgan daromadning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan qolgan qismini o'z hohishi bo'yicha ishlatish:
- cheklanmagan miqdorda xar qanday shaxsiy daromad olish:
- davlat ta'minoti va ijtimoiy sug'urta tizimidan foydalanish:
- sudda, arbitrajda va xakamlik sudida da'vogar va javobgar bo'lish:
- xorijiy valyuta sotib olish va joriy qonunlar asosida tashki iqtisodiy faoliyatni mustaqil amalga oshirish:

Ish bilarmonlarning xuquq va majburiyatlari, ularning jamiyat va respublika oldidagi xamla ellanga ishlovchilar va xujalikdagi sheriklari oldidagi xuquq va majburiyatlariga o'zviy bog'liqda.

Tadbirkorlarning majburiyatlari quyidagilar:

- amaldagi qonun va to'zilgan shartnomadan kelib chiqadigan barcha majburiyatlari bajarish:
- ishga yo'llanib olinayotgan fuqarolar bilan shartnomalar to'zish (agar zarur tug'ilsa) konun asosida jamoa shartnomasini to'zish. Yo'llangan ishlovchilarning o'z manfaatlarini ximoya qilish uchun kasaba uyushmalariga birlashishlari tusqinlik qilishi mumkin emas:
- mexnat shartnomalarida ishlovchilarga belgilangan malaka darajasini, respublika hukumati tomonidan belgilangan minimal ish haqidan kam bo'lmagan ish xaqi miqdorini va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarni inobatga olish:
- davlat ijtimoiy-sug'urta fondiga yollanib ishlayotgan shaxslar uchun sug'urta ajratmalarini respublika qonunlarida ko'rsatilgan usul va belgilangan miqdorda to'lab borish:
- amaldagi foyda va yo'riqnomalar asosida atrof muxit (ekologiya) xavfsizligini, ishlab chiqarish sanitariya va gigienasi va madaniyatini yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish:
- o'zining moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar, shartnoma asosida ishga jalb etilgan barcha ishchi-xizmatchilar Bilan xisob-kitob qilish:
- iste'molchilarning xuquqlari va qonuniy manfaatlariga amal qilish:
- mamlakat qonun lariga binoan litsenziyalanishi (ruxsat olishi) ko'rsatilgan faoliyat turlariga belgilangan tartibda maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olish:

TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB - QUVVATLANISHI

Qonun xujjatlarida bayon etilishicha davlat tomonidan tadbirkorlarga quyidagilar kafolatlanadi:

- fuqarolarning va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, korxona bunyod etish va buning uchun zaruriy mulk sotib olish xuquqlari:
- amaldagi qonunchilik va shartnomalar asosida barcha tadbirkorlarning xuquq va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish:
- tadbirkorlik faoliyatining ilmiy-texnikaviy va xuquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi:
- tadbirkorlik xavf-xatari va tavakkalchiligini sug'urta qilish:
- Tadbirkorlar bilan shartnoma to'zilgandan so'ng ular faoliyatiga shartnomada ko'rsatilgan xolatlardan tashqari, mulk egasining va xar qanday uchinchi shaxsning aralashishi ma'n etiladi.

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va uni keng targ'ib qilish va yoyish niyatida davlat axborot maslaxati, ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion fondlar va boshqa tashkilotlar to'zib, iqtisodiyotning ushbu sohasini rivojlanishiga yordam beradi

Kichik biznes bilan shug'ullanaetgan tadbirkorlar va kichik korxonalar yirik tovar ishlab chiqaruvchilar bilan davlatning maxsus madadisiiz raqobatchi bulolmaydilar.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash kuyidag'i asosiy masalalarni echish yo'li bilan amalga oshirilishi kerak:

- kichik biznes sub'ektlarini bozorga to'skinliksiz kirishiga sharoit yaratish:
- iqtisodda xususiy sektorning o'sishiga sharoit yaratish:
- tadbirkorlikni davlatning muhim ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarini echishga jalb qilish:

Mamlakatda kichik va o'rta biznesni taraqqiy toptirish uchun qonun iy asos bo'lib "Tadbirkorlik", "Bank va bank faoliyati", "Yakka hokimlikka barham berish va raqobatni rivojlantirish", "Xissadorlik jamiyatlari", "Qimmatbaho kog'ozlar va fond birjasi", "Tovar birjalari", "CHet el investitsiyalari", "Garov" to'g'risidagi qonunlar hamda Er, Xo'jalik (protsessual), Bojxona, Ma'muriy va Soliq kodekslari xizmat qiladi.

Davlat boshqaruv muassasalarida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus tarkibiy bo'linmalar bunyod etilgan.

Har xil mulk shakliga ega bo'lgan korxona va tashkilotlar tomonidan tadbirkorlar jamoa tashkilotlari tizimi shakllantiriladi. Ular ichida eng yirigi va yuqori obro'ga ega bo'lganri: ilmiy-sanoat asotsiyatsiyasi, tadbirkorlar va ijarachilar ittifoqlari, tovar ishlab chiqaruvchi va

tadbirkorlar palatasi va boshqalardir. Mustaqil davlatlarda shaxsiy farmonlar asosida so'nggi yillarda MDX davlatlarida xususiy firmalar ta'sischi ligida turli investitsion fondlar tashkil etildi.

O'zbekistonda bunday faoliyatni Biznes fond bajarmoqda.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash shakllardan biri tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etishdir. Bundan maksad tadbirkorlarga o'z mablag'idan imtiazli kreditlar berish, banklar orqali kredit bilan ta'minlashda kafolat bo'lish, xodimlarni tayoerlash, maslahat xizmatini ko'rsatish va ularga moddiy texnika vositalari va binolar olishda ko'maklashishdir.

Davlat mussasalari yoki boshqa tashkilotlar, shuningdek ulardagi amaldor shaxslarning qonunlarda ko'zda to'tilgan va bu idoralar vakolat doirasidan tashqari holatlarda tadbirkorlar faoliyatiga aralashishiga ruxsat etilmaydi. Davlat idoralari tomonidan qonun ni bo'zish evaziga tadbirkorlarga o'tkazilgan zarar aybdor idoralar yoki amaldor shaxslar hisobiga qoplanadi. Ko'rilgan zararni qoplash bilan bogliq bo'lgan mojarolar sud muassasasi yoki xo'jalik sudi orqali ularning vakolat doirasida hal etiladi.

4. MULKIY JAVOBGARLIK VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TO'XTATILISHI.

Tadbirkorlikning javobgarlik chegarasi amaldagi qonun chilik, ta'sis hujjatlari yoki mol egasi bilan to'zilgan shartnoma bilan belgilanadi.

O'z faoliyatini shartnoma asosida olib boruvchi tadbirkorning mulkiy javobgarligi shartnoma bilan belgilanishi zarur. U garovdagi pul mablag'ini muomalaga kiritish yoki bu maqsadda o'z shaxsiy mulkini o'rta qayish bilan amalga oshiriladi.

Tadbirkor o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil qilmasdan amalga oshiraetgan bo'lsa, u holda u o'ziga shaxsan tegishli bo'lgan mulk bilan javob beradi. Kreditorlar (haqdorlar) shikoyat bilan to'lanadigan mulklar ro'yxati fuqarolik protsessual kodeksi bilan belgilanadi.

Mulkiy javobgarlik quyidagi holatlarda kelib chiqadi:

1. Amaldagi qonun chilik bo'zilganda;
2. To'zilgan shartnomalari bajarilmaganda;
3. Xususiy mulk egasi yoki boshqa sub'ektlarning huquqi poymol bo'lganda;
4. Atrof muhit ifloslanganda;
5. Iste'molchiga mahsulotsifati masalasida yoki uni ishlatish o'sisli to'g'risida bilan turtb noto'g'ri yoki to'la bo'lmagan axborot berilganda;
6. Raqobatchilar to'g'risida bo'lgan ma'lumot etkazilgan yoki tarqatilganda;
7. O'z mahsulotini begona ishlab chiqaruvchilar tovarining tashqi kiyofasi va bezaklari bilan ishlab chiqarganda;
8. Tijorat sirini raqobatchiga noqonuniy oshkor qilganda yoki uni eyoganda;
9. Xo'jalik aylanmasida sherigining nomida bo'lgan tovar yoki firma belgisi yoki ishlab chiqarish markasini uning roziligisiz ishlatganda;
10. Tovarlarni ularni bozorga kam miqdorda chiqarib ular bo'yicha sun'iy kamchilik bunyod etib, sungra oshirilgan narxlarda sotib qo'shimcha daromad olganda;
11. Avvaldan bajarilmasligini bilib shartnomalar to'zgan va boshqa nojo'ya harakatlar qilganda;

Yuqorida qayd etilgan holatlar yo'z berganda vog'ealarning talabi bilan, sud, tadbirkorni qilgan jinoyati uchun javob berishga, nojo'ya harakatlarni to'xtatish va haqiqatni tiklash, keltirilgan zararni to'lashga majbur qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish mulk egasining yoki sud qarori bilan hal qilinadi.

Ishbilarmonlik faoliyati sud orqali quyidagi holatlarda to'xtatiladi:

- -bir necha marotaba ogohlattirilishiga va boshqa turdagi jazo choralari qo'llanishiga qaramay qonun qo'pol ravishda bo'zilsa
- -tadbirkor bankrot deb topilsa
- -tadbirkor qonundaman qilingan faoliyat bilan shug'ullansin

shlatrof muxitni muxofaza qilish me'rlari bo'zilganda va qonun xujjatlarida ko'zda to'tilgan boshqa xolatlarda

- tadbirkorlik faoliyati shartnoma asosida amalga oshirilaetgan bulsa, u xolda shartnoma muxlati tugaganda yoki shartnomada uni bekor qilish ko'zda to'tilgan xolatlarda yo'z bergan va shartnoma muddatidan oldin bekor kilinganda yoki tomonlar roziligi Bilan uning muddati tuxtatilganda

O'z faoliyatini shaxsiy mulk asosida olib boraetgan tadbirkor olamdan utsa, unda uning xuquq va majburiyatlari uning me'rosxurlariga utadi. Yuridik shaxs tashkil etilishi bilan olib borilaetgan tadbirkorlik faoliyati amaldagi qonun xujjalari, shu jumladan korxonalar to'g'risidagi qonun asosida tuxtatiladi.

4. XUJALIK YURITUVCHI SUB'EKTLAR FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN YULG'A SOLISH VA NAZORAT KILISH CHORA TADBIRLARI.

Kichik biznesning axvoli va taraqqiyotini davlat tomonidan nazorat kilishda kuyidagi usullag' qullaniladi: fiksals,monetar va bevosita aralashuv.

Fiskal siyosatda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati soliq va davlat tulovlari orkali boshqariladi. Xamdustlik davlatlarida soliqlar tizimi boylikni musodara kilish xususiyatig'a eg'a bo'lib,bu tadbirkorlik faoliyati tarakkietig'a karshi samara beradiş

Byudjetg'a xamda byudjetdan tashkart fondlarg'a tulanadig'an soliq va ba'zi tulovlar ba'zida Xujalik sub'ektlar daromadini 75-80%ni tashkil etmokda.Bu esa,tadbirkorlik faoliyati uni olib boruvchig'a kam manfaat keltirishini kursatadi.SHuning uchun,iqtisodietni boshqarishda fiksals

SIYOSAT	HARAKAT	SAMARA
Yuqori xarid qobilyatga ega bo'lgan pullap	Pul takliflini kamytitiradi Ustama foizlarni oshiradi.	Deflyatsion
Xarid qobilyati past bulgan pullap	Pul takini oshiradi Ustama foizlai pasaytiradi	Inflyatsiya

siyosati salmog'i yuqori bulmasligi kerak.

Monetar siyosat bu davlat tomonidan davlat milliy banki orqali muomalaga tushadigan massasini nazorat qilish-boshqarish demakdir. Monetar siyosat turlari sxematik tarzda quyidagi kurinishiga ega:

Monetar siyosat yuritish mamlmkatdagi inflyatsiya jarayonini sykinlashtiradi, bu esa pul-kredit muomalalarini barqarorlashtirishga va shu asosda tadbirkorlikning taraqqiy topishiga imkon yaratadi.

Davlatning iqtisodietga, shu jumladan kichik biznes taraqqietiga bevosita ta'sir ko'rsatishi davlat tomonidan shu soxaga taluqli qonunlar yaratilishi Bilan amalga oshiriladi.O'zbyokiston Respublikasida qabul kilingan "Tadbirkorlik to'g'risida"."Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish","Korxonalar to'g'risi"da,"Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ragbatlantirish"to'g'risidagi qonunlar shu yulda amalga oshirilaetgan ijobiy ishlar natijasiga. Jumladan,"Tadbirkorlik to'g'risida"qonunda bu faoliyat bilan,ayrim kategoriyadag xislardan tashqari barcha, jismoniy va yuridik shaxslar shug'ullanishni mumkin, deyilgan. Davlat idoralari va boshqaruv muassasalarida ishlovchilar, shuningdek, prokuratura va sud maxkamalari xodimlarining tadbirkorlik Bilan shug'ullanishi man etilgan. SHuningdek, qonunda korxona raxbari (yoki ish boshqaruvchilari -menejerlar) tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik, u mulkni boshqarish soxasida mulk egasi bilan bir xil xuquq va majburiyatlarga ega bo'lgan va tadbirkorlar uchun belgilangan javobgarlikni o'z bo'yniga olgan xoldagina amalga oshirilishi mumkinligi belgilab ko'yilgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tadbirkorlik va tijorat tushunchasi.
2. Tadbirkorlik va biznes.
3. Tadbirkorlarning sifati va belgilari.
4. Tadbirkorlar va tijoratchilar xuquqi, mas`uliyati va javobgarligi.
5. Tadbirkorlik turlari.
6. Tadbirkorlik va tijorat doiralari.
7. Tadbirkorlik va tijoratning shakllanish sabablari.
8. Tadbirkorlik va tijoratning sharoitlari.
9. Tadbirkorlik va tijoratning rivojlanishi. Tadbirkorlikning zarur shartlari.
10. Tadbirkorlikning rivojlanish yo`nalishlari.
11. Tadbirkorlik sub`ektlari.
12. Tadbirkorlik rivojlanishida chet el tajribasi.
13. Tadbirkorlikning xuquqiy asoslari.

Tayanch iboralar

Tadbirkorlik muxiti, tadbirkorlikning ijtimoiy iqtisodiy asosi, tadbirkorlik sub`ektlari va ob`ektlari, tadbirkorlik shakllari. Tadbirkor, tadbirkorlik, biznes, tadbirkorlik sifati, tadbirkorlik turlari, tijorat, tijorat doirasi, tadbirkorlik va tijoratning` rivojlanishi.

2-MAVZU: TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING` TASHKILIY-XUQUQIY SHAKLLARE`

REJA

1. Xususiy tadbirkorlik.
2. O`rtoqlik, kommandit, to`la va chala shirkatlar.
3. Kichik korxonalar. sherikchilik va jamoa kichik korxonalari.
4. Xissadorlik jamiyati. Ochiq va yopiq turdagi xissadorlik jamiyati.
5. Firmalar va korporatsiyalar.
6. Xolding kompaniyasi.
7. Offshor kompaniyasi.
8. SHuba korxonalar, shaxobcha (valokatxona)lar, xorijiy korxonalar.
9. Konsalting birlashmalari.

FOYDALANILGAN ADABIETLAR RUYXATI

1. Karimov I.A. O`zbyokiston XXI asrga intilmokda. O`zbyokiston.T-1999 yil.
2. Karimov I.A. O`zbyokiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo`lida. O`zbyokiston.Toshkent 1998 yil.
3. Gulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. O`zbyokiston.T-1997 yil.
4. Yo.Abdullaev, F.Karimov "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" Toshkent "Mexnat" 2000 yil.
5. Tadbirkorlik va kichik biznes. Gulomov S.S. Toshkent 2000 yil
6. Tadbirkor yon daftari "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". Toshkent 1999 y.
7. Muxiddinov D.M., Xamroqulov O.M. va boshqalar "Tadbirkorlik asoslari "fanidan o`quv qo`llanma, Buxoro 2002 yil "Muallif"

1. XUSUSIY TADBIRKORLIK.

Kichik biznesda tadbirkorlikni tashkil qilishning eng oddiy shakli bu yakka xususiy tadbirkorlikdir.

Xussusiy tadbirkorlik - xujalik yuritishning shunday tashkiliy-xuquqiy shakli-ki, unda mulk egasi bitta shaxs yoki oila bo'ladi va faoliyatdan kelgan daromadni (turli to'lov va soliqlar tulanganidan keyin) xammasiga egalik qiladi, qolaversa biznesdagi xavf-xatar va tavakkalchilik uchun yakka o'zi javob beradi.

Tadbirkorlikning ushbu shakli chakana savdoda, umumiy ovqatlanish sohasida, maslaxat sohasidagi biznesda, maishiy xizmatda, fermerchilikda, tibbiyotchilik amaliyotida va xunarmandchilikda ko'proq uchraydi. U ikki xil ko'rinishda tashkil qilinishi mumkin: a) individual - ya'ni korxona tashkil qilmasdan va b) xususiy korxona - ya'ni yuridik shaxs tashkil qilgan xolda.

Xususiy tadbirkorlikning afzalliklari:

- ishni tashkil qilishdagi oddiylik, to'la mustaqillik, xarakatdagi yorqinlik va tezkorlik. Tadbirkor biror qaror qabul qilishida yuqori tashkilotlarga murojaat qilishining yoki sheriklar roziligini olishining zarurati yuk;
- ishga qiziqtiruvchi sabablarning ko'pligi, chunki barcha foyda mulkning yolg'iz egasiga kelib tushadi va u ko'prok ishlashga ragbatlanadi, ish ustidan kerakli nazorat o'rnatish, extiyotlik bilan qaror qabul qilish va ish ko'lamini yanada kengaytirishga intiladi;
- konfidentsiallik (ishdagi maxfiylik) saqlanadi. Ba'zi bir biznes turlarida maxsus uslub, yo'llar, texnologiyalar tadbirkorlik faoliyatining asosiy boyligini (kapitalni) tashkil qiladi. Xususiy tadbirkorlik maxfiylikni saqlashga imkon yaratadi;
- xususiy tadbirkorlikda uning tashkiliy - xuquqiy shaklini o'zgartirish nisbatan engil kuchadi (masalan, masuliyati cheklangan jamiyatlar to'zish).

Xususiy tadbirkorlikning kamchiliklari:

- zaif moliyaviy poydevorga egaligi. Bu katta miqdordagi kapitallarni jalb qilishdagi kiyinchiliklarga sabab bo'ladi;
- xo'jalik faoliyatida xavf-xatar va tavakkalchilik yuqori darajada bo'lganligi sababli faoliyat davomiyligining noaniqligi;
- barcha xujalik faoliyati uchun cheklanmagan javobgarlikning xukm surishi;
- yakka xujalik mulkning mulkni boshqa shaxsga (masalan, boshqa oila a'zolariga) berishda nokulayligi, ixcham emasligi;
- mulk egasining o'limi, mexnatiga noloyiq bo'lib qolish mushkulligi.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish niyatida ishbilarmonlar mol-mulki, kasb yoki kapitallarni qo'shib birlashadilar.

2. O'RTOKLIK, KOMMANDIT, TO'LA VA CHALA SHIRKATLAR

Kichik biznesda ishbilarmonlik faoliyatini amalga oshirish uchun xar xil shakldagi shaxslar birlashuvi ichida eng oddiy o'rtoqlik, ya'ni shirkatchilikdir.

O'rtoqlik - bu ikki yoki undan ortiq shaxsning mulkini umumiy manfaatni ko'zlovchi maksadlardagi tadbirkorlik xarakatini uyushtirish birlashuvidir. U shartnoma asosida tashkil qilinadi, uning qatnashchilari avvalo o'zining va boshqa a'zolarining manfaatini ko'zlab xarakat qiladilar.

Urtoklikning asosan uchta turi mavjud: chala (oddiy), to'la va kommandit shirkatchiligi.

CHala (oddiy) shirkatchilik - bu ikki va undan ko'p shaxslarning shartnomaviy birlashishi bo'lib, unda mulk va tadbirkorlik xarakatlari umumiy shirkatchilik manfaatiga erishish maksadida birlashadi. Ushbu birlashish shaklida tashkilot umuman bo'lmaydi, chunki shirkatchilik sheriklari xar biri aloxida xarakat qiladi.

Uchinchi shaxslar uchun ushbu birlashma umuman yuk yoki maxfiy xisoblanadi. Ammo, chala (oddiy) shirkatchilikda ishtirok etuvchi shaxslar, o'z xuquq va

majburiyatlarini umumiy manfaat uchun ishlatadilar. Mulk masalasida, uchunchi shaxs oldidagi majburiyatlari to'la saqlab qolinadi. Bu kabi shirkatchilik a'zolari kelishilgan ulushni qo'shishlari zarur va qurilgan zarar va qarzlarni to'lashda barobar qatnashishlari lozim bo'ladi. Ular tadbirkorlik ishini olib borishda teng xuquqqa ega bo'lib, shirkatchilikka kiritgan ulushidan kat'i nazar, ishini to'yokis olib borishini, olingan foydani taksimlashda ishtirok etishi, kerakli vaktida shirkatchilikdan chikishi va mulkning bir qismiga egalik qilishi mumkin.

Birdamlikdagi javobgarlik, katnashchilar o'rtoklikning umumiy majburiyati uchun javobgarliklari asosida amalga oshiriladi. Bu javobgarlik cheklanmagan javobgarlik bo'lib, bunda shirkatchilik qatnashchilari uning majburiyati bo'yicha emas, balki shirkatchilik maksadida ishlatilishi va ishlatmasligidan kat'iy nazar, agar shirkatchilik ko'rgan zarar uning mulki qiymatidan ortiq bo'lsa, o'zining barcha mulki, shu jumladan shaxsiy mulki bilan javob beradi.

To'la shirkatchilik-bu shartnoma asosida ikki va undan ortiq shaxslarning umumiy maksadga erishish uchun o'z mulklari va tadbirkorlik kuchlarini birlashtirishga asoslangan kelishuvidir.

To'la shirkatchilikda xam xuddi chala (oddiy) shirkatchilikka uxshab, uning egalari manfaatining birligi seziladi. Agar chala (oddiy) shirkatchilikda umumiy manfaat maxfiy namoyon bo'lsa, to'la shirkatchilikda uchinchi shaxslar bilan bo'ladigan barcha munosabatlarda umumiy shirkatchilikmanfaati aniq ko'rinib turadi.

Oddiy (chala) shirkatchilikdagi o'xshab to'la shirkatchilikda xam tashkilot bo'lmaydi. Bitimlar barcha o'rtoqlar manfaaatini ko'zlab va ularning bittasi yoki bir nechasi nomidan to'ziladi. Ammo, tashqi iqtisodiy munosabatlarda, to'la shirkatchilik, uning sheriklari nomi bilan ish yurituvchi yagona firma sifatida xarakat qiladi.

Qonun bo'yicha shirkatchilik a'zolari soni cheklanmagan bo'lsalar xam, ko'pchilik shirkatchiliklar, asosan ikki yoki uchta a'zoga ega bo'ladilar. SHirkatchilik yollangan ishlovchilar mexnatidan xam foydalanadi.

SHirkatchilar mulki, odatda, uning a'zolari xissasidan va olingan foydadan tashkil topadi va u sheriklarga umumiy mulk bo'lib xizmat qiladi.

Barcha shirkatchilar faoliyati muxun a'zolar o'rtasidagi kelishuv asos bo'ladi. SHirkatchilik to'g'risidagi kelishuv quyidagi majburiy ilovalarni o'z ichiga oladi: shirkatchilikning nomi, xar bir sherikning familiyasi, ismi va otasining ismi, tabirkorlik faoliyati turi va urnashgan joyi, xar bir sherikning qo'shgan mablag'i mikdori, daromad va sodir bo'lishi mumkin bulgan zararning taqsimlanish tizimi, xar bir sherikning kompensaciya olish usuli, bir sherikning shirkatchilik kapitalidan oladigan cheklanmagan pul mablag'i.

Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromad sheriklarga tegishli xisoblanadi. SHirkatchilik a'zolari foydani xar qanday o'zaro manfaatli usul bilan bo'lishishga kelishlari mumkin. Xar bir shirkatchilik sherigi bir xil miqdorda kapital ko'shishi majburiy emas. Ba'zi bir xollarda bir sherik butunlay xech narsa qo'shamsligi mumkin, chunki uning biror soxasidagi tajribasi va kasbi, bilimi uning kapitali bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kommandit shirkatchiligi - bu ikki yoki undan ortiq shaxsning mulkni va tadbirkorlik xarakatlarini umumiy maksadga erishish niyatida birlashtirishiga asoslangan shartnomaviy kelishuvi bo'lib, bunda sheriklar ichida kamida bittasi kreditorlar oldida to'la (cheklanmagan) javobgarlikka, yana bittasi cheklanmagan javobgarlikka ega bulmog'i kerak. To'la javobgar shaxslar xaqiqiy a'zolar, cheklangan javobgarlar omonatchi - a'zo yoki kommanditlar deb ataladilar. Kommandit kreditorlar oldida o'zining shaxsiy mulki bilan emas, balki, umumiy mulkka ko'shgan xissasi bilan javobgar bo'ladi.

To'la shirkatchilikdagi xar bir sherik shirkatchilik faoliyatida shaxsan katnashishi kerak bo'lsa, kommanditlar shirkatchilikka o'z mulkini kiritishdan boshqa majburiyatga

ega emaslar. Ular uchinchi shaxslar bilan bo'ladigan bitimlarda ishtirok qilmaydilar va ularning nomi uchinchi shaxslar uchun noma'lum bo'lib qoladi.

SHirkatchilik bitimlarida kommandit uchinchi shaxslar bilan tarafdik munosabatlarida ishtirok etmaganligi sababli shirkatchilik majburiyati bo'yicha javobgar xisoblanmaydi, ammo unda shirkatchilikning umumiy mulkiga ko'shgan o'z xissasini yoq'otish xavfi bo'ladi.

Kommandit shirkatchiligi <aralash xissadorlik - kommanditligi > shakliga o'tishi mumkin va buning uchun a'zolar o'z xissalarini ko'shishni aktsiya sotib olish yo'li bilan amalga oshirishlari zarur. SHirkatchilikning bunday aralash shakli uning Xissadorlik jamiyatiga o'tish shakli bo'lib xizmat qiladi.

Xo'jalik shirkatchiligining tadbirkorlikning boshqa tashkiliy xuquqiy shakllari oldidagi afzalliklari quyidagilar:

- ishbilarmonlikning yakka xo'jalik shakliga karaganda shirkatchiligini o'zining pul mablaglari bilan biroz quvvatliroq;
- majburiyatlar bo'yicha yuqori javobgarlikka egalik xo'jalik shirkatchiligini mijozlarga ishonchli sherik qilib qo'yadi;
- boshqaruvining cheklangan sondagi shaxslar (xakikiy a'zolar) atrofida jamlanishi biroq karorning qabul qilinishida zaruriy mustaqillik, yorqinlik va tezkorlikni ta'minlaydi;
- begona investorlarning kapitalni jalb qilish imkoniyati tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va takomillashtirish xamda maxsulot, ish va ko'rsatiladigan xizmatning raqobatdoshligini oshirish uchun sharoit yaratadi;
- murakkab bo'lmagan tarkibi va boshqaruv tizimi amaldagi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. shirkatchilik odatda qobiliyati va tajribali xamda bir birini tuldiruvchi odamlardan tashkil topadi. Menejerlik vazifasi ular o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Masalan bitta sherik moliya va maxsulot ta'minoti bo'yicha ekspert, boshqasi - marketingda, uchunchisi- reklamada xizmat qiluvchi bo'lishi mumkin;
- ijobiy iqlim (muxit) mavjudligi. Bunday shirkatlarda insonlar ixini o'z xoxishi bilan qabul qiladilar, psixologik jixatdan bir-birini yaxshi tushunadilar, shuning natijasida ularning orasida ijobiy iqlim doimiy ravishda saqlanib turadi;
- shirkatchilik a'zolarining ishiga yuqori darajadagi qiziqishi. shirkatchilik uchun foydali bulgan barcha uning xar bir a'zosi uchun xam foydalidir.

Xo'jalik shirkatchiligining kamchiliklari:

- barqaror emaslik. shirkatchilik ishbilarmonlikni eng o'zgaruvchan shakli xisoblanadi. sheriklardan birining undan chiqishi yoki ulimi shirkatchilikning butunlay tarkalib ketishiga sabab bo'ladi. Bu kabi noaniqlik o'zok muddatli bitimlar to'zilishini kiyinlashtiradi;
- a'zolarining cheklanmagan javobgarligi. Agar bitimda ko'rsatilmagan bo'lsa, unda, xar bir a'zo shirkatchilik qarzlar oldida, o'zining investitsiyadagi xissasidan katiy nazar, tula javobgarlikka ega bo'ladi, yani biror a'zoning xatosi boshqa a'zolarining xam xarob bo'lishiga olib keladi.

3. KICHIK KORXONALAR. SHERIKCHILIK VA JAMOA KICHIK KORXONALARI.

Dunyo amaliyotida xozirgi davrgacha katta va kichik korxonalarni ajratib beruvchi yagona mezon urnatilmagan, xozirgi vaqtda ularda bir-biridan ajraatuvchi aloxida belgilarini aniqlash korxonalarining muxim soxalar bo'yicha umumlashma belgilari katoligini (ruyxatini) bunyod etish orkali amalga oshirilmokda. Bu belgilar turkumiga: mulk shakli, ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish, moliyaviy ta'minot, maxsulot sotish, ishchi xodimlar tarkibi, soni va boshqalar kiradi. Ammo korxonalar qo'lamini aniqlashda ko'p o'lchovli usulni qo'llash ko'plab kiyinchiliklarni vujudga keltiradi, chunki u xar xil yo'nalishdagi ko'rsatkichlarning birgalikdagi, umumiy o'lchovini aniqlashni talab qiladi.

Ma'lum bir ko'rsatkichini ishlatish esa, masalan, ishlovchilar soni, maxsulot xajmi, korxonaning o'lchamini aniq topishga imkon yaratadi, ammo shunday bo'lsa-da, korxona to'g'risida juda oz ma'lumot beradi.

O'zlarining faoliyati maqsadi bo'yicha kichik korxonalar kattalaridan farq qilmaydilar. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatadiki, uncha katta bulmagan korxonalar jamiyatda muxim ijtimoiy-iqtisodiy rol uynasalar xam, ular bozor sharoitida chidamli emaslar. SHuning uchun, kichik korxonalar, davlatning qo'llab-quvvatlashiga muxtojdir. Ushbu xolni xisobga olib, barcha davlatlar kichik korxonalarni kattalaridan ajratish uchun ma'lum ko'rsatkichlaridan foydalanadilar va ularni qonuniy xujjatlar vositasida bankrot bo'lishda ximya qiladilar.

O'zbekistan Respublikasi qonunlariga ko'ra kichik korxonalar ularda ishlovchilar soniga qarab ajratiladi. Unga binoan, kichik korxonalar turkumiga, odatda, quyidagi yangi bunyod etilayotgan va amladagi korxonalar kiradilar:

- sanoatda va qurilishda- 50 nafargacha;
- fan va ilmiy xizmatda - 10 nafarga;
- qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish soxalarida - 25 nafargacha;
- noishlab chiqarish soxasida -10 nafargacha;
- chakana savdoda - 5 nafargacha ishchisi bo'lgan korxonalar. SHuningdek, qonun, individual mexnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi va shirkat (o'rtoqlik) ga birlashib ishlovchi jismoniy shaxslarni xam kichik biznes subektlari qatoriga kiritgan.

Kichik korxonalar quyidagilar tomonidan bunyod etilishi mumkin:

- fuqarolar, ularning oila a'zolari va boshqa birgalikda mexnat faoliyatini olib boruvchi shaxslar;
- davlat, ijara jamoalari, qo'shma korxonalar, kooperativlar, xissadorlik jamiyatlari, xo'jalik jamoalari, shirkatchilar va boshqa yuridik shaxs xisoblanuvchi korxona va tashkilotlar;
- davlat mulkini boshqarish xuquqiga ega davlat idoralari;
- belgilangan idoralar, korxonalar, tashkilotlar va shaxslar xamkorlikda;
- amaldagi ishlab turgan korxona, birlashma tarkibidan, ishlovchi jamoa tashabbusi bilan, bitta yoki bir necha tarkibiy bo'linma yoki tarkibiy birliklarni korxona mulki egasining roziligi va korxonaning ilgari qabul qilgan shartnomaviy majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash sharti bilan ajratib olish natijasida.

Bunda kichik korxonaning tasischisi ushbu korxona xisoblanadi.

Kichik korxona bunyod etilishi uchun quyidagilar zarur;

- 1.Kichik korxonani asoslaydigan mulk shaklini aniqlash.
- 2.Tasischini tanlash, agar kichik korxona ma'lum mulk egasining mulki asosida bunyod etiladigan bo'lsa, uning roziligini olish;
- 3.Ta'sis xujjatlarini tayorlash;
- 4.Kichik korxona jamoasining unda yangi korxona bunyod etish va ta'sis xujjatlarini tasdiqlash yo'zasidan majlisini o'tkazish;
- 5.Kichik korxonani maxalliy davlat idoralarining ro'yxatidan o'tkazish; Kichik korxonalar orasida qo'shma korxonalar aloxida o'rin topadi. Qo'shma korxonalar - bu iki yoki undan ortiq yuridik shaxs, ya'ni, korxonalar mulkini qo'shish yo'li bilan tashkil qilingan korxonalardir. Ammo, amaliyotda xo'jalik subektlarining xorijiy sheriklar bilan birgalikda tashkil qilayotgan korxonalargina qo'shma korxona deb aytilmoqda. Bu korxonalar mamlakatimizga ilgar xorijiy texnologiya, boshqaruv tajribasi va qo'shimcha moliyaviy resusrlarni (investisiyani) olib kiradi va eksportni ko'paytirish imkonini beradi. Qo'shma korxonalar cheklangan javobgarchilikka ega bo'lgan jamiyat (mas'uliyati cheklangan jamiyat-MCHJ). Xissadorlik jamiyati xamda qonun tominidan cheklanmagan boshqa shakllarda, soni cheklanmagan, ammo ikkitadan kam bo'lmagan sheriklar o'rtasida to'zilgan shartnoma asosida bunyod etiladi. Qo'shma korxona ta'sisxilari xar ikkala tomondan xam yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Qo'shma korxona xujalik yuritish subekti xisoblanadi va faoliyati daromad olishga yunaltilgan bo'lib qaysi mamlakat xududida tashkil etilgan bo'lsa, o'sha mamlakat qonun lari asosida faoliyat kursatadi va soliq tulaydi. Soliq buyicha kushicha imtiyozlar ular uchun mavjud, agar ustav kapitalida xorijiy invetrorning ulushi 30% dan ortiq bo'lsa va qonun bilan urnatilgan nizom kapitalining shakllanish shartiga amal qilinsa.

Kichik biznesda jamoa korxonalari bunyod etish keng tarqalmoqda. Jamoa korxonasi - bu shunday xo'jalik shakli, unda barcha mulk va olinadigan foyda uning mexnat jamoasiga tegishli bo'lishi mumkin;

- mexnat jamoasi tomonidan davlat mulkini sotib olish yo'li bilan,
- uncha katta bo'lmagan davlat korxonlarni jamoa korxonalariga aylantirish yo'li bilan,
- jismoniy va yuridik shaxslar mulkini ixtiyoriy tarzda birlashtirish yo'li bilan;
- davlat korxonalari mulkini (qaytarib bermaslik sharti bilan) mexnat jamoalariga berish yo'li bilan.

Kichik biznesda yuqorida qayd etilgan jamoa korxonalarini tashkil qilish yo'nalishlaridan asossiyi - mulkni sotib olishdir. U quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin: o'z mexnatkashlariga aktsiya sotish yo'li bilan, ijaraga olish yo'li bilan, bankdan yoki boshqa korxonadan kredit olish yo'li bilan.

Jamoa korxonalarining afzalliklari:

- jamoa mexnatidagi o'sib boruvchi yangilikka intilish va musobaqalashish, o'zaro yordam va birdamlik. Bu korxona to'la mustaqil bo'lib, u begonalarning aralashuvisiz o'zi ishlab chiqargan va sotadigan maxsulotiga, bajaradigan ishiga va ko'rsatadigan xizmatiga bo'lgan talab asosida o'z faoliyati rejalashtiradi, kelajak taraqqiyotini xamda korxonaning ishlab chiqarishini, ijtimoiy rivojlanishini o'zida, mexnat kiluvchilarning shaxsiy daromadini qanday oshirishni o'zi mustaqil belgilaydi. Jamoa korxonasi xar bir ishlovchisining shaxsiy xissasi (ulushi) uning bajaradigan mexnatiga qarab belgilanadi.

Jamoa korxolarining kamchiligi: guruxiy xavfi; yig'ilgan jamg'arma putur ytkazib, istemolni oshirishga intilish.

4. XISSADORLIK JAMIYATI. OCHIQ VA YOPIQ TURDAGI XISSADORLIK JAMIYATI.

Xissadorlik (akcionerlik) jamiyati - bu jismoniy shaxslar kapitallarining birlashuvi bo'lib, u aktsiyalar chiqarish yo'li bilan bunyod etiladi. Aktsiyalar fond birjalari muomalada bo'ladi - bir shaxsdan ikkinchisiga yorqin o'tadi va aktsiyador uchun uning xissasi xaqidagi xujjat xisoblanadi.

Jamiyatning omonatchi - aktsionerlar oldidagi majburiyati, aktsiya uchun to'langan pul miqdori, ya'ni jamoat kapitaliga kiritilgan xissasi bilan cheklanadi. Jamiyat majburiyati buyicha o'z jamiyatning o'zi o'z mulki bilan javob beradi. U ochik yoki yopik bo'lishi mumkin.

Xissadorlik jamiyati - bu biznesning, ko'proq, demokratik shaklidir, chunki bevosita yoki obuna bo'lish yo'li bilan aktsiya sotib olish va korxona mulk egasi bo'lishiga istalgan inson erishishi mumkin.

Xissadorlik jamiyati, ma'suliyati cheklangan va qo'shimcha javobgarlikka ega bo'lgan jamiyatlar deb, xo'jalik faoliyatini amalga oshirish niyatida yuridik shaxslar va fuqarolarning mulklarini birlashtirish natijasida tashkil kiling'an yuridik shaxslar tan olinadi.

Xissadorlik jamiyati shunday xo'jalik jamiyatiki, uning nizom fondi jamiyatning nominal qiymatini ma'lum aktsiyalar soniga taqsimlangan bo'ladi va mazkur fond ushbu aktsiyalarni sotish orqali shakllanadi. Xissadorlik jamiyatlari:

- agar uning aktsiyalari ochik yoki obuna bo'lish yo'li bilan sotilsa, kimmatbaxo qogozlar bozorida qonundan tashqari xech kim tomonidan cheklanmay yorqin savdo - sotiq qilinsa - ochik Xissadorlik jamiyati deb ataladi;

- agar uning aktsiyalarining qimmatbaxo qog'ozlar bozorida muomalada bo'lishi jamiyat nizomiga binoan man etilgan yoki cheklangan bo'lsa va u faqat , nomlangan (egasi yozildi) aktsiyalar chiqarsa - yopiq Xissadorlik jamiyati deb atlatadi.

Xar ikkala xissadorlik jamiyati nizom kapitalining` eng kichik miqdori, davlat qonuni xujjatlaridan tashqari , xech narsa bilan cheklanmaydi.

Ochiq hissadorlik jamiyatini boshqa turdagi jamiyatlarga aylantirish mumkin emas. Yopiq Xissadorlik jamiyati esa o'z aktsiyalariga ochiq obuna utkazish yoki ularni fond bozoriga sotish uchun chiqarish yo'li bilan ochiq Xissadorlik jamiyatga aylantirishi mumkin.

U aktsiyalarga ochiq obuna o'tkazish yoki Xissadorlik jamiyatni yoki boshqa xo'jalik va shirkatchilik jamiyatni Ochiq Xissadorlik jamiyati boshqa jamiyat shakllariga aylantirilishi o'zgartirilishi xisobiga, ochiq aktsiyadorlik jamiyati boshqa shakllarga aylantirilishi mumkin emas. Aktsiyalarga ochiq obuna o'tkazish orqali turdagi Xissadorlik jamiyatini bunyod etish uchun quyidagilar zarur:

- jamiyat tashkil qilish va birgalikda faoliyat ko'rsatish xamda , bitta yoki bir necha shaxsga jamiyatni bunyod etish uchun vakolat berish tug'risida shartnoma to'zish.
- aktsiyalarga obuna o'tkazish , ta'sis konferencisini o'tkazish , jamiyat va uning aktsiyalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Jamiyatni bunyod etishdagi xarajatlar, jamiyatni bunyod etilishida paydo bo'lgan javobgarlik jamiyat to'zish tug'risidagi shartnomaga qo'l qo'ygan shaxslarga yuklatadi.

- oddiy yo'l bilan - bunda fuqarolar yopiq yoki ochiq xissadorlik jamiyatlarining obyktlarini aukcion orqali yoki konkurs yo'li bilan sotib olish bilan yaratadilar.

- davlat korxonasi mexnat jamoasi tomonidan yopiq xissadrolik jamiyatini bunyod etish va ushbu yuridik shaxs tomonidan korxonani sotib olish yo'li bilan;

- davlat yoki ijara korxonalarni ochiq xissadorlik jamiyatlarga aylantirish yo'li bilan.

Xissadorlik jamiyatlarini vujudg'a keltirish jarayonlari "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish", "Xissadorlik jamiyatlari", "Korxonalar", "qimmatbaxo kog'ozlar bozori va fond birjalar" va boshqa qonun va qonun aktlariga asosan boshqariladi.

Barcha jamoa korxonalar uchun (mas`uliyati chelangan , qo'shimcha ma`suliyatli va xissadorlik jamiyatlari) quyidagi umumiy jixatlar mavjud:

- nizom kapitalining tegishli bo'laklarga yoki aktsiyalarga majburiy bo'lim;
- jamiyatning o'z majburiyatlari bo'yicha cheklangan javobgarligi;
- sheriklar (aktsiyadorlar) orasidagi o'zaro munosabatlar , daromad va mulkni taqsimlash , korxonani boshqarish bo'yicha munosabatlar ularning kiritgan ulushlari miqdoriga qarab taqsimlanadi;

- jamiyat a`zolari (aktsiyadorlar) uning kapitaliga o'z ulushlarini kiritishlari zarur , ammo o'z mexnatlari bilan uning faoliyatida ishtirok etishlari majburiy emas.

5 FIRMALAR VA KORPORATSIYALAR

FIRMA - tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish maqsadida iqtisodiy resurslarni ishlatuvchi tashkilotdir. Mulk egasining` tavsifiga ko'ra quyidagi turdagi firmalar mavjud: davlat , xususiy tadbirkorlik va kapitalistik firmalar xar bir ochiq xolda ular xo'jalik faoliyatining asosiy maqsadi - qoldiq daromad - mulk eg'asining, barcha to'lovlar amlga oshirgandan keyingi daromadni ko'paytirish , kiritilgan kapitaldan olinadigan foydani oshirish va mexnatdan keladigan daromadni yuksaltirishdan iboratdir.

Kichik biznesda firmalar odatda yuqori texnolog'ik ishlab chiqarishni bunyod etish bilan band. Ular o'zlariga xos xo'jalik yuritish uslublaridan foydalanadilar. Ularning xo'jalik faoliyatini boshqarish strategiyasi to'rtta asosiy qismdan tashkil topgan:

Birinchidan - taraqqiyot topayotgan va yuqori texnologiya ega bo'lgan firmalar raqobati qiziqmaydilar, shuning uchun ular tor ixtisoslashgan maxsulotlar ishlab chiqarish bozorning yuqori daromadli qismini eg'allashga intiladilağ.

Ikkinchidan - firmalar istalg'an usul va vositalar bilan o'z xarajatlarini kamaytirishga intiladilar. Masalan, elektronika bilan shug'ullanuvchi firmalar butlovchi maxsulotlarni yirik ishlab chiqaruvchilardan sotib olib, o'z sarf-xarajatlarini iloji boricha kamaytirishga xarakat kiladilar.

Uchinchidan - kichik firmalarning kupchiligi ishlab chiqarishni bitta maxsulot texnologiya atrofida uyushtiradilar. Ularning vazifasi ushbu maxsulot yoki texnologiyani iste'molchilarning o'ziga xos extiyojlariga moslashtirishdan iborat bo'ladi. Kichik firmalarning yiriklaridan asosiy farqi xam ana shunday bo'lib, katta gurux iste'molchilar extiyojlarini qondirish niyatida asosan standart maxsulotlar ytkazib berishga, ya'ni xaridorlar talabiga ta'sir qilishga xarakat kiladilar.

Turtinchidan- deyarli barcha firmalar iloji boricha begona kapitalni qamrab jalb qilishga, o'zlarining mustaqilligini saqlab qolishga xarakat qiladilar. Mutaxassislar fikricha, kichi firmalarga faoliyati va taraqqiyoti maqsadlariga maxsulot va texnologiya taraqqiyoti bilan birga ularning mustaqillik va shaxsiy ijtimoiy-madaniy iqlimga intilishi xosdir.

Korporatsiya - bu umumiy kasbiy yoki tabakaviy manfaatlari asosida birlashgan shaxslar jamiyati, uyushmasi yoki guruxidir. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida ular qatoriga, odatda, Xissadorlik jamiyatlari xam kushiladi. Tijorat va notijorat korporatsiyalar bo'lishi mumkin. Notijorat korporatsiyalarga xokimiyat, shaxar, municipal, siyosiy taxkilotlar, xamda xayriya, diniy, maorif va shunga o'xshash muassasalar kiradi. Tijorat korporatsiyalar Xissadorlik jamiyatlari kabi ochiq va yopiq turlarga bo'linadilar. Ochiq korporatsiyada qo'shimcha kapitalni jalb etish cuxun aktsiyalar yorqin sotiladi. Barcha yirik korporatsiyalar ochiq bo'ladilar.

Barcha bozor iqtisodi Tarakkiyot topgan davlatlarda korporatsiyalar xamma ishlab chxiqarish soxalarida nufo'zli o'rin eg'allaydilar. Odatda korporatsiyalar kata biznes bilan bog'langan, ammo ular orasida kichik firmalar xam bo'lishi mumkin.

Korporatsiyalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

- bozor konyukturasinni asosiy vazifalari strateg'iyasini aniqlash;
- ilmiy-texnikaviy Taraqqiyot dasturlarini amalga oshirish orqali erishilgan fan-texnika taraqqiyoti natijalarini ishlab chiqarishga tadbqiq qilish;
- resurslarni va korporatsiyalarning xo'jalilararo korxonalarida ishlab chiqarilgan narsalarni markazlashtirilgan xolda taqsimlash va o'zining xususiy tijorat bo'linmalari orqali tarqatish;
- xo'jalik mexanizmini takomillashtirish va boshqalar.

6 XOLDING KOMPANIYASI.

XOLDING - bu mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil Xissadorlik jamiyatlari faoliyating nazorat qilish maqsadida bunyod etilgan jamiyatdir. Xoldingga birlashgan korxonalar, odatda, shuba korxonalar deb ataladi. Xolding yoki bosh xolding kompaniyasi o'zining shuba korxonalari aktsiyalarining nazorat paketlarini o'zida jamlash yo'li bilan moliya kapitalni to'playdi. Aktsiyalardan olinadigan dividentlar uning asosiy daromadi xisoblanadi. Xolding kompaniyasi o'z navbatida o'z aktsiyalarini chiqarib Xissadorlik jamiyati shaklida xam namoyon bo'lishi mumkin. Xolding qkatnashchisining omonati pul mablag'lari, kimmabaxo qogozlar, asosiy vositalar yoki boshqa moddiy boyliklar shaklida bo'ladi. Omonatlar kiymati barcha xolding qatnashchilari ishtirokida baxolanadi.

SHuba korxona ko'pincha korxonaning rivojlanib borishi davomida bosh korxona tomonidan tashkil qilinadi va to'la mustaqilikka eg'a bo'lg'an yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadu. Ammo, bosh korxona (kompaniya) shuba korxona aktsiyalarining asosiy qismi (nazorat paketi) egasi sifatida uning faoliyatiga ta'sir o'tkazishi mumki.

Xolding` kompaniyalri mustaqil faoliyat ko`rsatuvchi aloxida korxonalar aktsiyalari nazorat paketi davlatga tegishli bo`ladi. xolding kompaniyalri ikki xil bo`lishi mumkin:

- moliyaviy xolding. U asosan nazorat boshqaruv vazifasini bajaradi;
- aralash xolding` - turli xil xo`jalik faoliyati savdo- sotiq bilan shug`ullanadi.

Mamlakat qonunchiligiga asosan xolding` kompaniyalri kqyidagicha tashkil etilishi mumkin:

- yirik korxonalarni kayta tashkil kilishda ularning` tarkibiy bo`limlarini mustaqil yuridik shaxs (shu`ba korxonalar) sifatida bunyod etish yo`li bilan;
- yuridik jixatdan mustaqil korxonalarning` aktsiya paketlarini birlashtirish yo`li bilan ;
- yang`i xissadorlik jamiyatlari ta`sis etish yo`li bilan .

Xolding` kompaniyalarini shakllantirish jarayoni mulkni korxonaning` integ`racion tarkibini saqlab kolg`an xolda davlat tasarrufidan chiqarishning` bir vositasi sifatida ko`llanishi mumkin. Davlat xoldingida aktsiyalar nazorat paketi davlat mulkiga, shuba korxonalar aktsiyalari esa bosh xolding kompaniyasining mulkiga aylanadi. Davlat o`z aktsiyalari paketi doirasida aktsiyador korxonalar faoliyatini nazorat qiladi. Xolding` aktsiyalarining` kolgan qismi mexnat jamoalari azolariga , xolding` ta`minotchi va istemolchilariga, banklarga, xorijiy investorlarga, yorqin savdo yoki obuna qilish yo`li bilan fuqarolarga sotilishi mumkin.

Quyidagi faoliyat soxalarida xolding kompaniyalari bunyod etilishiga ruxsat etilmaydi:

- ishlab chiqarish vositalari va iste`mol tovarlari savdosida;
- qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi, qishloq xujaligi maxsulotlarini qayta ishlash va qishloq xujaligi ishlab chiqarishining moddiy texnikaviy ta`minotida;
- umumiy ovkatlanish va axoliga maishiy xizmat ko`rsatishda ;
- transportda (temir yo`l, quruvli transport va faqat xalqaro yuk tashish bilan shug`ullanuvchi korxonalaridan tashqari).

Xolding kompaniyalarini tashkil etishda bundan boshqa cheklanishlar xam mavjud .

Bunyod etilayotgan xolding kompaniyalri avvaldan ishlab kelayotgan konceri, korporatsiya, assocatsiya yoki boshqa birlashma va korxonalri xamda davlat boshqaruv org`anlarining xuquqiy vositalari bo`la olmaydilar. Xolding tashkil qilishning muxim sharti - korxonalar birlashuvinning` ihtiyoriy bo`lishi zarurligidir. Xolding ichida ma`muriy - buyrukbozliê munosabatlari bo`lmasligi lozim.

6.OFFSHOR KOMPANIYASI.

OFFSHOR KOMPANIYASI - bu imtiyozli soliq to`lash ( yoki butkul tulamaslik) xududida bunyod etilgan korxona bo`lib u ruyxatga olingan joyda barkaror turmaydigan shaxslarga tegishlidir. Ko`pgina davlatlarda xorijiy investiciyalarini ko`prok jalb etish maqsadida kiritilgan omonatlar xaqidagi axborotning qonunchilik yokiananaviy kafolatlar yo`li bilan konfidensialligini (oshkor etilmasligini) tamin etuvchi va qator imtiyozlar berish tizimi bunyod etilgan bo`lib, bu tizim xorijiy tadbirkorlarga ularning tadbirkorlik faoliyatini mazkur davlat xudida olib boorish sharti bilan joriy qilinadi. "Offshor zonasi" deb nom olgan bunday xududlarga G`arbiy Evropada - Gibraltar, Irlandiya, genua, Djersi, Malta, Olderna orollari, xamda, bazi bir qo`shimcha shartlar bilan Lyuksemburg va Lixtenshtyen davlatlari; yaqin sharqda - Kipr, Baxrayn, Birlashgan Arab Amirliklari va Livan; o`zoq sharkda - Gonkong, Singapur, Labudan oroli (Malayziya); Markaziiy Amerika Krib deng`izida – Bag`am orollari , Britan , Virgin orollari, Tyurke va Kokos orollari, Kaymanovlag orolari, Niderland , Antil orolari, Beliz, Neviye, Kosta -Rika, Grenada, Panama, Antigua, Arube; Afrikada - Liberiya, Mavrikiy va boshqalar. Turli ma`lumotlarga ko`ra, dunyoda 30-50 atrofida offshore xududi soliq gavanlari ( bandargohlari) ma`lum.

Odatda, offshor korxonasi mas`uliyati cheklangan jamiyat yoki kompaniya shaklida bunyod etildi. Ammo, offshor faoliyati uchun boshqa tashkiliy-xuquqiy shalar xam yuk emas,

masalan, shirkatchilik, xorijiy kompaniyaning` shaxobchasi shaklida xam bo'lishi mumkin. Ba'zi bir davlatlar va tayyor kompaniyani tezkorlik bilan sotib olish yo'li bilan "offshor" tashkil qilish mumkin. Bunda nizom kapitalining` eng kam ulchami bevosita va bilvosita qonun bilan belgilanishi (Kipr, Irlandiya, Gibraltar) yoki umuman chegaralmagan bo'lishi mumkin (G'onkong, Maday).

Offshor kompaniyasining soliq to'lash tartibiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy shart bu uning rezident va rezident emaslik maqomidir. Bunda nazarda tutilayotgan narsa korxona boshqaruv idoralarining, uning ro'yxatdan o'tgan xududiga nisbatan, o'rmonda joylashgan joyidir. Norizident kompaniyalarining` rezidentlardan farqi shundaki, ular o'zlari joylashgan xududdan turib boshqariladi. Norizident kompaniyalar amalda maxalliy soliq to'lash tizimidan butunlay chiqariladi. Bu kabi kompaniyalarning o'zlari ro'yxatdan utgan joyda o'ziga tegishli ofisi bo'la shart emas, ba'zi bir davlatlarda esa, buxgalterlik xujjatlarini olib borishdan va xissadorlar reyestrini yuritishdan xam ozod qilingan. Bu xolda, korrespondenciyalarni qayta ishlash va yillik moliyaviy xisobotlarni tayorlash majburiyatlari maxsus firmalar zimmasiga yuklatiladi. Kompaniyani uning egasi yr sharining xar qanday nuqtasidan turib bevosita boshqarishi mumkin. Soliq boshqa tulovlardan imtiyozlar kompaniyaning` mulki va unda ishlovchi xorijiy ishchilarga nisbatan joriy qilinadi, ba'zi bir xollarda esa ishx xaqqlaridan olinadigan soliqlardan xam ozod qilinishi mumkin. Kompaniyaning moliyaviy faoliyatida valyuta bo'yicha cheklanishlarning bo'lmagani sababli olingan daromad istalgan turdagi valyutada yorqin olib chiqib ketilishi mumkin. shu sababli, offshor kompaniyalari, go'yoki kapitalni qochirish uchun bunyod etiladi, degan noto'g'ri fikrlar keng tarqalgan. Bu fikrda qandaydir darajada xaqiqat bor, chunki bu kabi korxonalarining bir qismi xaqiqatan xam kapital yigish uchun mo'ljallang'an sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ammo, offshor kompaniyalarning` ko'pchiligi xaqiqiy xo'jalik faoliyatini amalga oshirish va savdo operaciyaalarini moliya bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish, investitsiyalarni boshqarish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanadilar. Ular ichida ko'plari bizning` respublikamizga moliyaviy kuyilmalar, tovarlar va texnologiyalar ko'rinishida kapital jalb qilishda yordam berishlari mumkin.

8. SHO'BA KORXONALAR , SHAXOBCHA (VAKOLATXONA) LAR , XORIJIY KORXONALAR.

SHO'BA KORXONALAR - bu korxonalar yuridik shaxs tomonidan bunyod etilgan bo'lib, xar qanday mulk shakliga ega bo'lishi mumkin. Ularning bunyod etilishi uchun quyidagi majburiy shartlarga rioya qilinishi kerak:

- bunyod etilayotgan shuba korxonaga mulkni yoki uning bir qismini berish ;
- shuba korxonaga beriladigan mulkka, mulk egasining yoki uning vakolatiga ega bo'lgan idoraning roziligining bo'lishi;
- ta'sis korxonasi shuba korxonaga beriladigan mulka egalik qilmasligi.

Sho'ba korxonani bunyod etish va uni ro'yxatdan o'tkazish asosiy korxonalar tashkil qilinishi tartibida o'tkaziladi. Sho'ba korxonalar ta'sischi korxonalar kabi xuquq va imtiyozlardan foydalanadilar va javobgarlikka ega bo'ladilar. Ta'sischi va shuba korxonalar o'rtasidagi munosabatlar ta'sis xujjatlari asosida tartibg'a solinadi.

Xar qanday shakldagi mulkka ega bo'lgan korxonalar o'z shaxobchalarini (vakolatxonalarini) bunyod etishga xaqqidirlar. Ular yuridik shax bo'la olmaydilar va ular xaqqidagi raxbar tasdiqlagan nizom asosida faoliyat ko'rsatadilar.

SHaxobcha yoki vakolatxona bankda xisob yoki joriy xisob raqamlarini ochishi mumkin. Ularga korxona nomidan xo'jalik shartnomalarini to'zish xuquqi beriladi. SHartnoma bo'yicha javobgarlik korxona zimmasiga yuklanadi.

SHunga uxshash bo'linmalar nizomda ko'zda to'tilgan bitta yoki bir necha faoliyat turlarini amalga oshirish niyatida maxalliy sharoitlarni aniq xisobga olgan xolda bunyod etiladi. SHaxobcha va vakolatxonalar yangi ish bog'ishlagan tadbirkorlarning o'z ishlarini

mustaqil olib boshlagan tadbirkorlarning o'z ishlarini mustaqil olib borib, asta sykinlik bilan kichik biznesga kirib borishlari uchun sharoit yaratib berish vazifasini bajaradi, chunki shaxobchalar va bosh korxonalar urtasidagi munosabatlar odatda xo'lik ichidagi xo'jalik xisobi asosida ko'rildi.

Xorijiy firmalar vakolatxonalarida fyda olish faoliyati bilan shg'ullanmasliklari xam mumkin. Ular faoliyati xorijiy firmalar yordamida chet davlatlarda turib moliya bilan ta'minlanadilar. Bu kabi vakolatxonalar faqat vakolatchilik vazifalarini bajaradilar, jumladan xorijiy firmalar vakillari vatanimizdagi sheriklari, davlat idoralari oldida xorijiy firmalar nomidan vakillik qiladilar, shartnomalar to'zadilar, chet davlatlar firmalarning maxsuloti va kursatadigan xizmatini reklama qiladilar. Ammo bu kabi vakolatxonalar o'zlarining faoliyatidan xech qanday daromad olmaydilar. Ammo, ishchining bunday shakllari kupgina xorijiy firmalar uchun mazkur mamlakat bozorini urganishning dastlabki bosqichida katta foyda beradi. U katta investiciyalar talab qilmaydi, mazkur mamlakatdagi iqtisodiy axvolni o'rganishga imkon yaratadi, investisiya qilib naqadar maqsadga muvofiqligini aniqlashga yordam beradi.

Xorijiy korxona - bu yuridik shaxs -nerezident xisoblanadi, uning nizom kapitalida faqat xorijiy capital ishlatiladi. U xorijiy investor tomonidan bevosita ta'sis etilishi yoki respublikadagi mulk egalardan konvertacijalanuvchi valyutaga sotib olingan mulk egalardan konvertacijalanual valyutaga sotib olingan mulk asosida bunyod etilishi mumkin. Xorijiy korxonalar, shuningdek mazkur xududda amal qiluvchi valyuta asosida xam tashkil qilinishi mumkin. Buning uchun bu valyuta shu davlatga xorijiy investiciyalardan yoki ruxsat etilgan tijoratchilik faoliyatidan olingan daromad ko'rinishida bo'lishi, yoki konvertacijalashtirilgan valyutaga respublika banklarida almashtirilgan bo'lishi kerak.

Xorijiy korxona faoliyati daromad olishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ulardan mamlakat korxonalriga belgilangan tartibda soliq olinadi. Soliq imtiyozlar amladagi qonunchilik doirasi joriy qilinadi.

Xorijiy korxonalar shu soxada vakolati bo'lgan banklarda xisob raqami ochish xuquqiga ega. Xisob xorijiy va milliy valyutada ochilishi mumkin. Milliy valyuta xususiylashtirish maqsadida, xom ashyo. Tovarlar sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Ammo, bu mablag xorijiy korxonaning respublika xududidagi xo'jalik faoliyati xisobiga topilgan bo'lishi kerak. Xorijiy investiciyalarga asoslangan korxonalarning mablag'lari, shuningdek, banlarga sug'urta kompaniyalariga, korxonalarga, ularning ulushi nizom kapitalini 50% dan oshmasligi sharti bilan ko'yilishi mumkin.

9. KONSALTING` BIRLASHMALARI.

KONSALTING - bu ishlab chiqarishga ish yo'zasidan xizmat ko'rsatish soxasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslaxat xizmati ko'rsatish va texnikaviy loyixalarni ekspertiza qilish bilan bog'lik iqtisodiy faoliyatdir. Kichik biznesda konsalting birlashmalari tarakqiy topgan maslaxat xizmati bozorini bunyod etish yo'li bilan tadbirkorlik faoliyatining tarakkiyotiga yordam ko'rsatadi. CHunki, kabi xizmatlarni aloxida firmalar talab darajasida amalga oshira olmaydilar. Bunday firmalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: "Yag'ona axborot- so'rovnomalar fondini yaratish va yagona reklama strategiyasini amalga oshirish yo'li bilan ularning a'zolari faoliyatini umum maqsadlar yo'lida jamlash;

" Maslaxatchilik tashkilotlarini tarakkiy topishiga va xorijiy invistisiyalarni jalb etishga ko'maklashish;

" Tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun sheriklar tanlash;

Konsalting birlashmalarning kichik biznes soxasida keng tarkalgan maslaxat xizmati turlari quyidagilardan ibarat:

" Barcha mulk shakllaridagi korxonalarni ro'yxatga olish uchun ta'sis xujjatlarni tayyorlangan bo'yicha maslaxatlar berish;

- Marketing bo'yicha izlanishlar o'tkazish;
- Xususiylashtirish, aksionerlashtirish dasturlarini ishlab chiqish;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha maslaxat berish;
- Reklama strategiyasini ishlab chiqish, reklama materiallarini tayyorlash va ularni tarkatish;
- Xuquq,moliya,tashkiliy,boshqarish masalalari bo'yicha maslaxatlar berish;
- Aqliy (intellektual) mulkni ximoya qilish masalasi bo'yicha maslaxatlar berish;
- Xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish;
- Tadbirkorlik va kichik biznesni taraqqiy toptirishga xizmat qiluvchi tadbirlarni o'tkazish;
- Firma ish uslubini ishlab chiqish;
- Xafsislik texnikasi, ishlab chiqarish sanitoriyasi, madaniyati, atrof muxitni ximoya qilishmasalalari bo'yicha maslaxatlar berish;

Investisiyalarni jalb qilish,imtiyozli kredit olish,zaruriy resurslarni va kapitallarni sotib olish bo'yicha va boshqa maslaxatlar berish;

Zarurat tug'lsa konsalting birlashmalari kichik biznes korxona rahbarlari va mutaxassislarining malaka oshirish ishlarini tashkil etishi xam mumkin.

Konsalting birlashmalari ko'pchilik xollarda savdo-sanoat palatasi, respublikaning Milliy va tijorat banklari bilan yaqindan aloqa urnatadi.Bu esa,ularning axborot xizmati bozorini shakllantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlari darajasini orttiradi va kichik biznes taraqqiyoti uchun sezilarli o'lush ko'shadi.

Takrorlash uchun savollar

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Xususiy tadbirkorlik, konfidentsialik, kommandit, shirkatchilik, kichik korxonalari, xissadorlik jamiyati, xissadorlik jamiyati turlari, aktsiya, dividend, fond birjalari. Firma, korporatsiya, xolding, xolding kompaniyasi, offshor kompaniyasi, shahobcha, shu'ba (?iz) korxonalari, xorijiy korxona, konsalting birlashmalari, yagona axborot

3-MAVZU: TADBIRKORLIK FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN XIMOYA KILINISHE

REJA

- 1.Tijoratning siri qonun -qoidalari va uni baxolanish me'zonlari.
- 2.Ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari mualliflik xuquqini ximoyalash.Sanoat nusxasi va tovar belgisi.
- 3."Nou-xau".
- 4.Maxsulotni sertifikatlash qilish.Sanoat mulkini ximoyalash xujjatlarini berish uchun to'lov va badallar.

FOYDALANILG`AN ADABIETLAR RUYXATI

1. Karimov I.A. O'zbyokiston XXI asrga intilmoqda. O'zbyokiston.T-1999 yil.
2. Karimov I.A. O'zbyokiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo'lida. O'zbyokiston.Toshkent 1998 yil.
3. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'zbyokiston.T-1997 yil.

4. Yo. Abdullaev, F. Karimov "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" Toshkent "Mexnat" 2000 yil.
5. Tadbirkorlik va kichik biznes. Gulomov S.S. Toshkent 2000 y
6. Tadbirkor yon daftari "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". Toshkent 1999 y.
7. Muxiddinov D.M., Xamroqulov O.M. va boshqalar "Tadbirkorlik asoslari "fanidan o'quv qo'llanma, Buxoro 2002 yil "Muallif"

1. TIJORAT SIRI QONUN KOIDALARI VA UNI BAXOLASH MEZONLARI

Bozor iqtisodiyotida axborot tovar xisoblanadi. Uni olish, saqlash, birovga etkazish va ishlatish tovar-pul munosabatlari qonun lariga bo'ysunishi kerak. Xar bir mulk egasi o'z manfaati va tijorat sirini saqlash va ximoya qilish xuquqiga ega.

Xo'jalik yo'rituvchi sub'ektlarning tijorat siri bu - davlat siri bo'lmagan ma'lumotlar bo'lib, u ishlash chiqarish, texnologiya, axborot, boshqaruv, moliyaviy, tashkil iqtisodiy, ilmiy texnikaviy va boshqa faoliyatlar Bilan bog'lik va ruxsatsiz oshkor qilinishi va ishlatilishi korxonaning yoki tadbirkorlarning manfaatiga zarar keltirishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir.

Tijorat siriga ega bo'lish xuquqi tadbirkor va korxonaning iqtisodiy xayotiga davlat aralashuviga cheklanishi, boshqa bozor munosabatlari sub'ektlari Bilan bo'ladigan o'zaro aloqalarida ular manfaatining davlat tomonidan ximoya qilinishi demakdir.

Tijorat sirining davlat va xarbiy sirlaridan farki shundaki, u aniq xo'jalik yo'rituvchi sub'ektning mulkidir. Uning asosiy vazifasi ishbilarmon yoki korxona uchun raqobat kurashida iqtisodiy ustivorlikni ta'min etishdir.

Tijorat siri bo'lib xisoblangan ma'lumotlarning tarkibi va xajmi xamda ularni ximoya qilish tartkibi xo'jalik yurituvchi sub'ekt raxbari tomonidan belgilanadi. Tadbirkorlik yoki korxonaning tijorat siri xisoblangan faoliyat turlari xukumat tomonidan aniqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tijorat siri xisoblanuvchi va saqlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlari quyidagi baxolash mezonlariga to'g'ri kelishi kerak:

- ulardan ochiqdan - ochiq foydalanish korxonaga ziyon keltirish Bilan bog'lik;
 - ular qonun asosida xammaga ma'lum yoki xamma foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumot bilan xisoblanmaydi;
 - korxonalar iqtisodiy va boshqa samarani ko'zda tutgan xolda ularning konfidentsialligini saqlash chora tadbirlarini amalga oshirishi mumkin;
 - Ushbu ma'lumotlar ximoyalanihga muxtoj, chunki ular davlat siri xisoblanmaydilar, mualliflik yoki patent xuquqi Bilan ximoyalalmaganlar;
 - Ushbu ma'lumotlarning oshkor qilinishi davlatga zarar etkazmaydi;
- Xar qanday korxonada tijorat sirini ximoya qilish tizimini yaratishda quyidagi ishlarni to'g'ri tashkil etish kerak bo'ladi:
- materiallar tayyor maxsulotlar va ayniqsa, tajriba nusxalarining ba'zi bir turlarini xisobga olish va ximoyalash;
 - tijorat siriga ega bo'lgan xujjatlarni yuritish (xisobga olish, saqlash, ishlatish va yuk qilish koidalari);
 - nusxa ko'chiruvchi va xujjatlarni ko'paytiruvchi vositalarni nazorat qilish;
 - aloqa vositalari va xisoblash mashinalaridagi tijorat sirini ximoya qilish;
 - konfidentsial axborotlarni o'z atishda aloqaning ochiq kanallaridan foydalanish tartibi;
 - asosiy imorat va inshootlarni, korxonaning xududini, ayniqsa uni ximoya qilish;
 - begona shaxslarning ushbu korxonaga kelib ketishini nazorat kiladi.

SHuni ta'kidlash kerak-ki, korxonaning tijorat sirini bilish raqobatchi va boshqa kizikuvchishan tomonidan xamma vakt xam faqat xuquqga Karshi usullar Bilan amalga oshirilavermaydi. Dunyoda zaruriy va konfidentsial axborotlarni ochiq xuquqiy usullar Bilan olishning yaxshi yo'lga qo'yilgan mexanizmi xam mavjud. Bu ochiq nashrga va efirga tushib turgan axborotni taxlil qilishdir. Ular ichiga keng tarkalgan va sodda usullarga quyidagilar kiradi:

- tadbirkorning ochiq matbuotdagi maqolalari , korxona xizmatchilarining turli xil konferentsiallarida , seminarlardagi nutqlari, xar xil yarmarka va ko'rgazmalardagi eksponatlar, tovar va fond birjalaridagi savdolari natijalari xaqidagi ma'lumotlar, bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi e'lonlar va bo'sh lavozimlarga konkurslar e'lon qilish to'g'risidagi ma'lumotlari va boshqalar.

2.IXTIRO VA RATSIONALIZATORLIK TAKLIFLARI MUALLIFLIK XUQUQINI XIMOYALASH.

Davlatimizning qonun xujjatlariga binoan xuquqiy ximoya ixtirolarga, agar u Yangi ixtirochiga darajasiga ega va sanoatda ishlatilishi mumkin bo'lsa beriladi. Ixtiro, Yangi deb, agar u ariza beriladi kungacha, uning va shunga o'xshash karorning mohiyati mamlakat yoki xorijda ochildigan bo'lsa tan olinadi.

Sanoatda "ko'llash" deb tan olinadigan echim agar u biror soxa tarmog'iga tegishli bo'lib, berilgan echimga asosan u butunlay boshqa maqsadlarda ushbu yoki boshqa soxa tarmoqlarida , butunlay boshqa ijobiy samaraga erishish orqali amalga oshgan bo'lsa , u ixtiro deb tan olinadi.

Ixtiro ob'ekti quyidagilardan iborat:

- "ko'rilma";
- "usul";
- "modda";
- "mikroorganizm shtammi";
- o'simlik va hayvonlarning yangi xujayralari;
- avvaldan ma'lum ko'rilma, usul, moda yoki shtamppi butunlay boshqa maqsadlarda ko'llash (ishlatish).

Quyidagilar ixtiro deb tan olinmaydi:

- ilmiy nazariyalar;
- xo'jalikni tashkil qilish usullari va uni boshqarish;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish usullari;
- algoritmlar, informatsion dasturlar (IXMlar uchun);
- imorat, inshoot va xududlar loyixalari va planirovka sxemalari;
- estetik talablarni kondirishga karatilgan va maxsulotlarning faqat tashqi ko'rinishiga tegishli takliflar;
- jamiyat manfaatlari, insonparvarlik va axloq printsiplariga oid echimlar.

Oshkor qilinishi mamlakat xavfsizligiga zarar etkazuvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ixtirolar Respublika Vazirlar Maxkamasi tomonidan o'rnatilgan tartibda maxfiylashtirilishi zarur.

Ixtironing muallifi deb o'zining ijodiy mexnati evaziga uni yaratilgan fuqaro tan olinadi. Agar ixtiro bir necha fuqarolarning birgalikdagi mexnati evaziga yaratilgan bo'lsa, unda ular barchasi xam mualliflar deb xisoblanadilar. SHerikchilik bilan yaratilgan ixtiroga berilgan xuquqdan foydalanish tartibi va mualliflarning kelishuvi bilan aniqlanadi.

Sanoat nusxasi - bu maxsulotning tashqi ko'rinishiga taalluqli bo'lgan badiiy va badiiy-konstruktorlik echimidir. Sanoat nusxalari xajmli (buyurtma shaklda; ya'ni model), t'okis yo'za (rasm) va aralash (kombinatsiyalashgan) ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Agar sanoat nusxasi yangi, original va ko'llashga yaroqli bo'lsa, unga nisbatan xuquqiy ximoyalash joriy qilinadi. Bu sifatlar quyidagi xollarda tan olinadi:

- axamiyatli belgilar majmuasi mazkur mamlakat va chet ellarda qaror prioritet sanasi (ya'ni ariza qabul qilingan sana) gacha bo'lgan muddatda ma'lum bo'lmasa;
- axamiyatli belgilar va (yoki) ularning kombinatsiyasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi;

- xo'jalik faoliyatiga joriy qilinganda uni sanoat usulida va tegishli maxsulotda takror ishlab chiqishi mumkin bo'lsa.

Tovar belgisi - bu shunday belgilarki, ular bir xildagi tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi yuridik va jismoniy shaxslar maxsulotlarini o'zaro ajratish uchun xizmat qiladi.

Tovar belgisi sifatida so'z, tasvir, xajmiy shakl va boshqa belgilar yoki ularning kombinatsiyalash ro'yxatga olinishi mumkin. Tovar belgisi istalgan rang yoki ranglar uyg'unligi bilan ifodalanishi va ximoyalanishi mumkin.

Tovar belgisi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tovar va ishlab chiqaruvchini individuallashtirish;
- boshqa ishlab chiqaruvchilarga o'xshash tovar belgisini qo'llashni takiklovchi reklama va xuquqie ximoya vazifalari.

Kuyidagi i, faqat belg'ilashlarni o'z ichig'a oluvchi tovar belg'ilarini ruyxatg'a olishga yul kuyilmaydi:

- farklovchi belgilari bo'lmagan (ya'ni boshqa belgilardan butunlay fark kiluvchi aloxeaa belgilari bulmag'an) tovar belg'ilari;
- davlat g'erbi, bayrog'i va nishonlari, davlatning rasmiy nomlari, xalkaro, xukumatlragi tashkilotlarning bayroklari, nishon(emblema)lari, ularning kiskartirilg'an yoki tula nomlari, rasmee nazorat, namuna tamg'alari va boshqa fark belg'ilari.
- ma'lum turdag'i tovarlarning xammag'a ma'lum va urfg'a aylang'an belg'ilari qatorig'a kiraaeeai belg'ilar;
- tovarlarning turi, sifati, mikdori, xususiyatlari, muljallanishi, kiymati, axamiyati, xamda ularni ishlaa chiqarish yoki sotish xususiyatlarini kursatuvchi va urf-odatg'a aylang'an ramziy belgi va atamala.

Yuqorida kursatilg'an belg'ilar ximoya kilinmokchi bulg'an tovar belg'isining ximoya kilina,oeai elementlari xisoblanmasa, teg'ishli muassasa yoki ularning eg'alari rozilig'i bilan tovar belgilage tarkibig'a kushilishi mumkin.

Tovar belg'ilarini yoki ularni belg'ilash elementlarini ruyxatdan utkazish kuyidagi xollarda ma'n etiladi:

- tovar yoki ishlab chiqaruvchi tugrisida yolg'on yoki iste'molchini chalgituvchi aaeeeeag;
- ma'nosig'a kura jamiyat manfaatig'a, insonparvarlik va axlok koidalarig'a karama-karshi turua-e belg'ilar;
- respublikada mashxur bulg'an fan, adabiyot va san'at asarlari yoki ularning kismlarini o'zida mujassamlovchi belg'ilar muallif yoki uning vakilining rasmiy rozilig'i olinmag'an bulsa.

Tovar belg'isini ruyxatdan utkazish xorijiy davlatlarda xalkaro darajada xam amalga oshiriliye mumkin. Arizalar respublika katnashadig'an xalkaro shartnomalar asosida olib boriladi. Tovar belgisi jamoa belg'isi sifatida xam ruyxatdan utkazilishi mumkin.

Jamoa belg'isi ittifok, kontsern yoki boshqa xujalik birlashmasining ishlab chikarilayotgan, ee sotilayotg'an bir xil sifat va tavsifg'a eg'a bulg'an tovarlarni belg'ilash uchun kullanadi. Ushbu belae aa undag'i foydalanish xuquqi beg'ona shaxslarg'a berilishi mumkin eman.

Tovar va jamoa belg'ilari reestirig'a va eg'alik guvoxnomalarig'a umumiy ma'lumotlarg'a kuoei-a ravishda ulardan foydalanish xuquqi bulg'an yuridik, jismoniy shaxslar xakidagi ma'lumotlar xam kiritiladi. Ushbu ma'lumotlar, jamoa belg'isi joriy qilinadig'an tovarlarning umumiy tavsiflari tug'risidagi kiskacha ma'lumotlar Respublika Patent idora tomonidan maxsus rasmiy byulletenda bosib chikariladi.

3. "NOU-XAU"

Bozor munosabatlari tarakkiy topg'an sari nafaqat patent ximoyasig'a eg'a bulg'an, balki ular ichaea favkulodda xuquqg'a eg'a bulg'an, balki ular ichida favkulodda xuquqg'a eg'a bulg'an patent. Nou-xau bilan ximoya kiling'an yang'iliklar kata axamiyat kasb etib bormokda. nou-xau (ing'liz-a know-how - "qandaylig'ini bilaman") - bu aloxida bilim, tajriba, texnik, texnolog'ik tijorat, boshqaruu, moliyaviy va tavsifdag'i malaka bo'lib u tijorat kiymatig'a eg'a va ishlab chiqarishda, mutaxassislée amaliyotida ishlatilishi mumkin, ammo patent ximoyasi bilan

ta'minlanmag'an, ularni birovga berish uchun maxsus litsenziya shartnomasi va boshqa turdagi bitimlar to'zilda aloxida ko'rsatib utilaadi.

Bu texnologik jarayonlarning tartibi, uslublari va ulchamlari, mikroelementlar, ug'itlar, reaktivlag konstruksiya kurilmalari xususiyatlari xakidagi ma'lumotlar unsurlari bo'lib, ularni yaxshi bilib olmasdan turib, yangi navlarni, xayvonlar nasllarini, texnik vositalarni, texnologiyalarni ularning nusxalari, patent va bosib chikarilgan ma'lumotlarga karab ishlab chikish mumkin emani.

Nou-xauning belgilaridan biri uning konfidentsialligidir, yani Ushbu bilimlarni Tula xajmda faol uning egasi biladi, xolos.

Ushbu axborotning ba'zi bir elementlari xar xil manbalarda bo'lishi mumkin. Barcha ma'lumotlarni yigish, umumlashtirish, kullash mashakkatli va ozok vakt xamda mablag talab kiladiki, uni bevosita egasidan olish sezilarli iqtisodiy yoki boshqa samara beradi. SHuning uchun nou-xauni sotib oluvchi o'zining raqobatchilari oldida ma'lum ustunlikga ega bo'ladi va buning uchun u nou-xau egasiga bitimda ko'zda tutilgan mukofotni tulaydi.

Tijorat amaliyotida nou-xau xuddi ixtiroga beriladigan patent, sanoat nusxalari, tovar belgilariga berilgan shaxodatnoma, ratsionalizatorlik taklifiga beriladigan mualliflik xuquqi kabi korxonaning yoki xususiy shaxsning mulki xisoblanadi. Uni boshqa shaxslarga berish litseiy shartnomasi asosida patentdan aloxida karov va montajni talab kiladigan buyumlardan foydalanish xuquqi kabi korxonaning yoki xususiy shaxsning mulki xisoblanadi. Uni boshqa shaxslarga berish litsenziya shartnomasi asosida patentdan aloxida karov va montajni talab kiladigan buyumlardagi foydalanish xuquqi bilan birgalikda berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Litsenziya shartnomasida bir necha patentlarning ular bilan bog'lik bulgan nou-xau bilan birgalikda berish ko'zda tutilishi, litsenziyalangan maxsulotni yorqin eksport kilish, uni kisman va tula takiklash tug'risida kelishilishi mumkin.

"Nou-xau"ni ruxsat olmasdan ishlatilishdagi javobgarlik uni olgan shaxsning nopokligi isbot etilgan sharoitda yoki litsenziatlar tomonidan maxfiylik shartini bilmasdan bo'zgan xollarda yo'zaga keladi.

4. MAXSULOTNI SERTIFIKATSIYA KILISH VA MULKINI XIMOYALASH UCHUN TULOV VA BADALLAR.

Sertifikatsiya - bu mos kelish sertifikati yoki tamgasi yordamida maxsulot, ish yoki xizmati ma'lum me'yorlarga yoki texnik shartga mos kelishini aniqlash maqsadida qilinadigan xarakatdir. Sifat sertifikati bozor iqtisodiga asoslangan ilg'or davlatlarda etkazib beriladigan maxsulotning sifatini tasdiklovchi va unga ilova qilinadigan xujjatdir. U "Xaridor-sotuvchi" soxasida urnatilgan munosabatlarning zarur tuldiruvchisi vazifasini bajaradi va dunyo bozorida maxsulotning raqobatbardoshligini oshirishda belgilovchi omil bo'lib xizmat kilade.

Sertifikatsiyaga o'tish - maxsulot beruvchi va iste'mol kiluvchi shaxslar urtasidagi munosabatlarni takomillashuviga guvoxlik beradi, maxsulotning iste'molga tula tayyorligiga kaffa berilishini ta'minlaydi. Sertifikatlashni utkazish maxsulotni iste'molchi tomonidan kayta tekshirib kurilishini bartaraf etadi, bu esa iste'molchiga ma'lum iqtisodiy samara beradi. Ishlab chikaruvchining maxsulotni sertifikatsiya kilishi uning mamlakati va tashki bozorda iste'molchi talablarni yuqori sifat darajasida kondirish yo'liga o'tishini bildiradi.

Sertifikatsiya maxsulot, i shva xizmatlarning kuyidagi xujjatlarga asosan belgilangan talablarga muvofiq bo'lishiga karab utkazilishini bildiradi. Sertifikatsiya maxsulot, ish va xizmatlarning kuyidagi xujjatlarga asosan belgilangan talablarga muvofiq bo'lishiga qarab o'tkazilishi mumkin:

- davlat standartlariga asosan;
- halqaro va xorijiy standartlarga binoan;
- istemolchi tanlangan boshqa me'yoriy-texnik xujjatlar bo'yicha.

Ixtiro yoki sanoat nusxasiga patent olish uchun arizani rasmiylashtirish bilan bog'liq yuridik ma'nodaga harakatlar, xamda tovar belgisi uchun guvohnoma, ekspertiza o'tkazish, patent olish va uni saqlash uchun asosiy patent to'lovi olinadigan ishlar ro'yxati, to'lovlar o'lchami, to'lash muddati Respublika Vazirlar Maxkamasi tomonidan o'rnatiladi. To'lovlar va badallar mamlakatning patent maxkamasiga to'lanadi.

Badallar ilmiy - texnika maxsulotini eksport qilish uchun litsenzion shartnomani ro'yxatdan o'tkazish, tovar belgisini, patentni boshqalarga berish tug'risidagi shartnomaga, patent uchun ishonch bildirilgan nomzodlarni attestatsiya qilishva ularga guvohnoma berish, patentni ishonib topshiriladi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish uchun oliy.

Arizachi yoki uchinchi shaxs tomonidan to'langan badal to'lovlari qaytarilmaydi, amma, to'lov to'g'ri amalga oshirilgan-u, lykin ariza berilgan echim Yangi emas deb topilsa, yoki, to'lov xarakatlari mutlaqo noto'g'ri bo'lgan hollar bundan mustasnodir. Bu hollarda arizachi (uchinchi shaxsga) to'lovni qaytarib berishlarini talab qilish yoki boshqa to'lovlar o'rniga xisoblash xuquqi beriladi. bu to'g'ridagi iltimosnoma Davlat Patent idorasiga arizachi to'lovni qaytarilmasligi yoki shartning bajarilmasligi tug'risidagi ma'lumot olgandan sung belgilangan muddatda amalga oshiriladi. Patent tulovlar yigimlarni to'lash tartibi davlat patent idorasi tomonidan urnatiladi.

Takrorlash uchun savollar

Tayanch iboralar

Tijorat siri, raqobatchi, konfidentsial axborotlar, ixtiro, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat nushasi, tovar belgisi, jamoa belgisi, sertifikatziya, "nou-xau".

4-MAVZU: TADBIRKORLIK TAVAKKALCHILIGI VA UNI SUG'URTA QILISH USULLARI .TIJORAT XUQUQI ASOSLARI

REJA

- 1.Xo'jalik tavakkalchiligining iqtisodiy asoslar va tavakkalchilik chegaralari.
- 2.Tavakkalchilikni o'lchash uslublari va tavakkalchilik qarorlarni tanlash hamda ularga ta'sir etuvchi omillar.
- 3.Kichik biznesda ba'zi bir xo'jalik tavakkalchiligi turlarini sug'urtalash.
- 4.Savdo bitimlarini tu'zish va vositachilik bitimlarining shartnomaviy rasmiylashtirish.
- 5.SHartnomaviy majburiyatlarining aylanma xujjatlari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbyokiston XXI asrga intilmoqda. O'zbyokiston.T-1999 yil.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo'lida. O'zbekiston.Toshkent 1998 yil.
3. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'zbekiston.T-1997 yil.
4. Yo.Abdullaev, F.Karimov "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" Toshkent "Mexnat" 2000 yil.
5. Tadbirkorlik va kichik biznes. G'ulomov S.S. Toshkent 2000 y
6. Tadbirkor yon daftari "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". Toshkent 1999 y.
7. Muxiddinov D.M., Xamroqulov O.M. va boshqalar "Tadbirkorlik asoslari "fanidan o'quv qo'llanma, Buxoro 2002 yil "Muallif"

1. XO'JALIK TAVAKKALCHILIGINING IQTISODIY ASOSLAR VA TAVAKKALCHILIK CHEGARALARI.

Kichik biznesda har qanday xo'jalik subekti uchun bozor munosabatlariga o'tish noaniqlik va tavakkalchilikning oshib borishi bilan bog'liq. Korxona va alohida tadbirkorlar ichki va tashqi bozorlarda mustaqil shartnoma tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan keyin, birinchi marta, muttasil o'zgarib turadigan bozor konyukturasi sharoitida xo'jalik faoliyatining muqobil yo'nalishlarini tanlab muammosiga duch keldilar.

Tadbirkorlik muhitiga siyosiy vaziyat, iqtisodiy ahvol, qonunchilik asosi, xalqning ijtimoiy-madaniy saviyasi tarmoqlarning ilmiy texnika taraqqiyoti darajasi, tabiiy-iqtisodiy sharoit va bozorning o'ziga mos tarkibi, ya'ni konsyunkturasi ta'sir ko'rsatadi. Agar ko'rsatilgan ishbilarmonlik muhitining har bir elementini tahlil qilsak, u holda ularning hozirgi kichik bazisni darajasini qoniqarli deb hisoblanadi mumkin va u Respublikada kichik biznesning taraqqiyotini ta'minlay oladi. Ammo, mulkni himoya qiluvchi va shartnomalarga amal qilishni kafolatlovchi, qonunchilik tizimining yo'lga, tovarlar harakatini qat'iy tartibga solinishi, eksport uchun maxsus ruxsatnoma litsenziya berish tizimining murakkabligi, eksport uchun boj to'lovlarining mavjudligi, xullas amalda mol-mulkka Davlatning yakka xokimligi kichik biznesda xo'jalik yurituvchi subyektning tavakkalchiligini sezilarli darajada oshiradi.

Tavakkalchilik - yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarga qaramay amalga oshiriladigan faoliyatdir. SHuning uchun, tavakkalchilik deganda bevosita u bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatar ham tushuniladi.

Kadrlar strategiyasi, kadrlar siyosati taktikasi, kadrlar bo'yicha menejer, kadrlarni rejalashtirish, kadrlarning netto ehtiyojini, kadrlarning brutto ehtiyoji (BPK), kadrlar malakasiga talablar, kadrlarning bandlik shartlari, rotatsiya, kadrlar rotatsiyasi, ichki chegara, tashqi chegara, Mehnat shartnomasi, kadrlar ko'nimsizligi.

Tadbirkorlik etikasi, etika, etikaviy me'yorlar, biznes etikasi, ma'naviy sifatlar, ijtimoiy-rusiy sifatlar, intellektual irodaviy sifatlar, ishni miridan sirigacha bilish, kompetentlik, kons'yumerizm.

8-MAVZU: TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MOLIYAAVIY XOLATI

REJA

1. Moliyaviy resurslar va moliyaviy kapitalning mohiyati va to'zilishi.
2. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlash va uning shakllari.
3. Kichik biznesda Frangayzing tizimi.

FOYDALANILGAN ADABIETLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbyokiston XXI asrga intilmoqda. O'zbyokiston.T-1999 yil.
2. Karimov I.A. O'zbyokiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo'lida. O'zbyokiston.Toshkent 1998 yil.
3. Gulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'zbyokiston.T-1997 yil.
4. Yo.Abdullaev, F.Karimov "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" Toshkent "Mexnat" 2000 yil.
5. Tadbirkorlik va kichik biznes. Gulomov S.S. Toshkent 2000 é
6. Tadbirkor yon daftari "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". Toshkent 1999 y.
7. Muxiddinov D.M., Xamroqulov O.M. va boshqalar "Tadbirkorlik asoslari "fanidan o'quv qo'llanma, Buxoro 2002 yil "Muallif"

1. MOLIYAVIY RESURLAR VA MOLIYAVIY KAPITALNING MOHIYATI VA TO'ZILISHI

Biznesning asosini, shuningdek uning kichik ko'rinishlarini moliyaviy sarmoyalar va moliyaviy zaxiralar tashkil keladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy zaxiralarini uning ixtiyorida bo'lgan pul vositalari tashkil qiladi. Ular xo'jalik faoliyatining turli tarmoqlariga yuboriladi: vositachi va moliyaviy xizmatlar, savdo-sotiq, xizmatlari, investitsiya va innovatsiya loyixalari. Naqd pulning etishmovchiligi kichik biznes istiqbolini, uni xayot topish extimolini, uning moliyaviy epchilligini pasaytiradi va sinishiga olib keladi. CHunki etarli miqdorda naqd pulning bo'lmasligi banklarni qarz bermasligiga olib keladi. Xo'jalik faoliyatini rivojlantirish uchun ishlatiladigan moliyaviy zaxiralar (xomashyo sotib olish, yarimtayyor maxsulotlar, mexnat uskunolari, ishchi kuchi) pul ko'rinishidagi sarmoyadir. SHunday qilib moliyaviy menejmentda tavsiflanishi bo'yicha sarmoya bu moliyaviy zaxiraning bir qismidir.

Sarmoyaning umumiy ifodasi:

$D = T + D_i$

$P = T + P_1$

bu erda: P - investor tomonidan qarzga berilgan pul mablag'i.

T - maxsulot (tadbirkorlik faoliyati uchun sotib olingan uskuna, ishchi kuchi va xo'jalik yuritishni boshqa qismlari).


P_1 - investor tomonidan xo'jalik faoliyatini yuritish natijasida va ko'shimcha maxsulotni sotishdan olingan pul mablag'i.

$(P_1 - P)$ - investorning foydasi yoki ko'shimcha maxsulot.

$(P_1 - T)$ - maxsulot sotuvidan yoki xizmat ko'rsatishdan tushgan pul.

$(P - T)$ - investorni xo'jalik uskunalarini sotib olishga sarflangan xarajati.

Moliyaviy sarmoyani ishlatishni yuqorida keltirilgan jadvalda xo'jalik tizimiga quyiladigan pul mablaglari to'la sarflanmaydi, faqat qarzga beriladi va aylanib foyda bilan investorga qaytib keladi. (P) moliyaviy zaxiralar sarmoyasi qo'shimcha foyda keltirishi uchun u ko'prok aylanishi kerak.



bu erda: m - investorning foydasi.

Yiliga sarmoya qancha ko'p aylansa investor yillik daromadi shuncha ko'p bo'ladi.

Moliyaviy zaxiralar sarmoyasini to'zilisiga shuningdek asosiy fondlar, aylanma fondlar, muomila fondlariga quyilgan pul mablag'lari kiradi. Asosiy fondlar - mexnat qurollari yig'indisining qimmatli ko'rinishi. U moliyaviy ko'rinishini o'zgartmasdan ishlab chiqarish va xo'jalik korxona chegarasida faoliyat ko'rsatadi xamda o'z qiymatini qaytadan yaratilgan maxsulot qiymatiga o'tkazad.

Aylanma fondlar - korxona ishlab chiqarish fondining bir qismini tashkil qiladi. U bir ishlab chiqarish davrida (tsiklida) ishlatiladi va o'z qiymatini ishlab chikariladigan maxsulotga

to'raligicha o'tkazadi. Muomila fondlari tayyor maxsulotni iste'molchilarga yuborilgani, lyokin to'lanmagani, bank va kassa xisobidagi pul mablag'ini o'z ichiga oladi.

Nomoddiy aktivlar - xisob-kitob toifasi. Nomoddiy vositalarga fizik xususiyatlarga ega bo'lmagan, ammo korxona aktiviga ko'shilgan va odatda uning foydalanish muddati davrida amortizatsiya to'lovlarini talab qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: Patentlar, litsenziyalar, nou-xau, avtorlik xuquqlari va boshqa intellektual mulk, shaxsiy mulkchilikka va erdan, foydali qazilmalardan va savdo markazlaridan, IXM programmaviy ta'minotidan va boshqalardan o'zoq davr foydalanish. Ularning bir qismi o'zining dastlabki narxini yo'qotadi va vaqt o'tish mobaynida foyda keltiradi.

Nomoddiy vositalarni sotib olishni tovar va maxsulot sotishdan, ish bajarnsh va xizmatdan kelgan foyda xisobiga xamda bank krediti, jismoniy yuridik shaxslarni qaytarilmaydigan badallari xisobiga moliya bilan ta'minlaniladi. Oddiy vositalar ularni sotib olish qiymatlari bilan xisobga olinadilar, ularga qushimcha (bevosita) xarajatlar, ba'zi bir ob'ektlarni tartibga keltirib xo'jalik faoliyatiga kiritish uchun qilingan xarajatlar qo'shiladi.

2.TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH VA UNING SHAKLARI.

Uncha ko'p bo'lmagan yangi ishbilarmonlar o'z ishlarini o'zlari moliya bilan ta'minlaydilar. Ko'pchilik kishilar o'z miqdorda bo'lsa ham tashqi manbalarga muxtoj bo'ladilar.

Pul resurslarining 4 ta toifasi mavjud:

1. Savdo krediti. Bu turdagi "Pul" turri ma'noda zayom vositasi xisoblanmaydi. Xaqiqatdan bu tovarlar qiymati xisoblanadi. Uni sizning etkazib beruvchilaringiz sizga pul to'lamasdan qarz qilib beradilar va qarzni eslatilgan muxlatlarda to'lash sharti bilan.
2. Qisqa muddatli kredit. Banklar va boshqa kredit beruvchilar, bu kabi kreditlar maxsus maqsadlar - muddatli kreditlar extiyot sifatida kelgusi mavsumda sotish uchun beriladi. Bu kabi kredit uchun qarz bir yilga etmasdan o'ziladi.
3. O'zok muddatli kredit. Bu zayomlar bir yildan ortiq muddatga korxonani kengaytirish yoki takomillashtirish uchun beriladi.
4. Aktsionerlik kapitalda investornang qatnashishi. Bu kabi resurslar qaytarilmaydi. Siz vositalarni olasiz va foydaning bir qismini investorga berasiz. Boshqacha qilib aytganda, siz o'z korxonangizning bir qismini sotasiz.

Pul mablag'larini qaerdan olish mumkin?

Moliyaviy ta'minlashning imkonli manbalari quyidagilardir:

- tijorat banklari;
- moliyaviy kompaniyalar;
- investitsion kompaniyalar;
- investitsion fondlar;
- kredit idoralari;
- xaridorlar;
- maxsulot beruvchilar;
- dust va tanishlar.

Pullarni qaerdan olish mumkin?

Moliyaviy ta'minning imkonli manbalari quyidagilardir:

- tijorat banki;
- moliyaviy kompaniyalar;
- investitsion kompaniyalar;
- investitsion fondlar;
- kredit idoralari;
- xaridorlar;
- maxsulot beruvchilar;

- do'st va tanishlar;
- xayriya tashkilotlari;
- trans kompaniyalar va banklarning trust bo'linmalari;
- davlat, xalqaro va jamiyat tashkiloti va idoralar, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturida ishtirok etuvchilar (ularning markaziy va maxalliy idoralari);
- ishlovchilar;
- dastgox ishlab chiqaruvchilar;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaka fondlar;
- xususiy investorlar;
- moliyaviy maslaxatchilar.

Kimga va qaerga murojaat qilish kerak?

Keng tarqalgan moliyaviy manbalar:

Banklar - banklardan ssuda olish nixoyatda sodda. Sizga pul savdo operatsiyasi o'tkazish uchun bemalol, ammo yangi korxona bunyod etish uchun bemalol emas. Demak, sizga bankni ishontrish kerak, siz xammasini yaxsh o'ylagansiz va o'z ishingizni tashkil qilishga astoydil xarakatta tushasiz. Bu ishda sizga ishlab chiqarilgan biznes rejangiz qo'l keladi.

Quyidagi masalalarga aloxida diqqat-e'tibor qilishingiz kerak.

- Olingan vositalar qanday ishlatiladi?
- Qarz qanday qilib to'lab beriladi?
- Kredit olish uchun qanday ta'minot taklif etilishi kerak.
- O'zingiz tanlagan faoliyat uchun zarur tajriba va tayyorgarlikka egamisiz?
- Boshqaruv xodimlarining va etakchi mutaxassislar ishi qanday?
- Ushbu biznes soxasining o'zoq muddatli kelajak tarakkiyoti qanday?

Investitsion fondlar xissadorlik yuqori ushish potentsialiga ega, kichik korxonalar kapitaliga badallar to'lash mumkin. Ko'plari aniq tarmoq, jug'rofik noxiya, texnologiyalar bo'yicha yoki ma'lum xajm uchul investitsiya loyixasiga ixtisoslashadilar. Ular bilan kelishuv paytida quyidagilarni esda to'tish zarur: investitsion fondni bir kunda ko'rib chiqish uchun 30 dan ortiq buyurtmani va biznes-rejani qabul qilish mumkin, ulardan 10 % gina o'qib chiqiladi. O'kib chiqilganlardan faqat bir nechasigina yana davom etib o'kish uchun jo'natiladi va juda ozlari moliya olishi mumkin.

Demak:

- Sizning biznes-rejangiz xar tomonlama kasbiy ustunlikka ega bo'lishi uchun xamma narsani qilish, u aniq tushunarli yozilgan bo'lishi kerak.
- Korxonani tugatish rejasini tayyorlashda "tavakkalchi" investor sizni biznesdan qanday chiqishingizni aniq bilishi kerak. Ko'pchilik investitsion fondlar "Etuk" darajaga erishgan paytda pulni yuqori o'sish potentsialiga ega korxonalarga joylash odatiga hos.

Davlat va jamiyat tashkilotlari. Bugungi kunda kichik biznesni qullashni o'zlarining asosiy vazifasi deb xisoblaydigan davlat va jamiyat tashkilotlarining soni ko'paymoqda. Ular faqat moliyaviy yordam qilmasdan balki (qoida bo'yicha imtiyozli kredit shaklida) xonalar qidirib topishadi, xodimlarni o'qitish va boshqa ishlarda yordam beradi.

Bu kabi tashkilotlarga ko'llash uchun murojaat qilishdan oldin ularni o'ziga xos talablarini bilish kerak, ko'plari ular uchun kerakli soxalardagi kichik korxonalarga yoki aloxida ijtimoiy guruxlarga zaxiraga bo'shatilgan xarbiylarga yordam ko'rsatadi.

Kapitalni jalb qilishning boshqa imkoniyatlari xam bor. Masalan, ixtirochi investorlar guruxidan moliya olish mumkin, buning uchun u agar ishi yurishmay qolganda o'zining ishlab chiqqan texnologiyasiga egalik xuquqini ularga topshirishi kerak. Xorijiy moliya manbalari mavjud. Masalan, xorijiy firmalar, ular boshqa davlatlarga investitsiya qilish imkoniyatlarini faol o'rganmokdalar.

3.KICHIK BIZNESDA FRANCHAYZING TIZIMI

Franchayzingning mohiyati Ba`zida ma`lum bilimga, tajribaga, qobiliyatga ega bo`lgan ishbilarmonlarga o`zining shaxsiy biznesini tashkiliy shaklini tanlab olish uchun dadillik, mardlik xususiyati etishmaydi, shu sababli u o`ziga ishlatish uchun tayyor korxonani imtiyozli shart bilan boshqa davlatdan yoki O`zbekistondan, yirik firmadan yoki ularning texnologiyasidan, tovar markasi (belgisi)dan foydalanish xuquqiga ega bo`ladi, ya`ni franchayzing oladi.

Franchayzing - bu o`zaro manfaatli bitimga asoslang biznes olib borish usulidir. Bu bitim yirik kompaniya xamda mayda firma yoki aloxida ishbilarmonlar o`rtasida to`ziladi. Bu bitimning mohiyati kichik biznesga o`z ishini maxsus tanlangan joyda va ma`lum vaqt davomiyligida olib borish imkonini berishdan iborat.

Dunyoning ko`p davlatlarida franchayzing o`zining yashash qobiliyatiga egaligini isbot qildi. Ishbilarmonlikning franchayzing tizimi AKSHda, Kanadada, Yaponiyada, G`arbiy Evropada muvaffaqiyat bilan tarakkiyot topmoqda. Ko`plab ma`lum va mashhur xorijiy davlatlar korporatsiyalari, ya`ni "Makdonal`ds", "Adidas", "Koka-Kola" va yo`zlab boshqalari bo`lar franchayzingli kompaniyalardir. Masalan, franchayzing "Doka-pitsta" dastgox va texnologiyalarni etkazib beradi, xar xil turdagi material va jixozlar bilan ta`minlaydi (nakleykalar, reklama plakatlar, bukletlar, uslubiy tavsiyanomalar), o`qitishni tashkil qilish, original firma ko`rsatmalarini berish va boshqa o`z ishini yo`lga qo`yish uchun zarur bo`lgan narsalarini etkazib beradi.

Xamkorlik davlatlari orasida birinchi franchayzingli tizimlar paydo bo`lib, Rossiya Federatsiyasidagi "Interkongress-Silling" (Sankt-Peterburg) firmasi faoliyat ko`rsatmoqda.

Franchayzingning asosiy turlari va qoidalari Tadbirkorlik faoliyatidagi franchayzing tizilgan franchayzing bitimiga asoslanadi. SHu bitimga asosan yirik firma boshqa firma yoki ishbilarmonlarga xodimlarni tayyorlashda, dastgoxlarni sozlashda, texnologiyani o`zlashtirishda, tashkiliy masalalarda, reklamada, ta`minotda, maxsulot sotishda erdam ko`rsatish majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

Bu xizmatlar uchun kichik firma ularga vaqti-vaqti bilan to`lovlar to`lab turadi xamda o`z kapitalining bir qismini investitsiya qilish va marketing, menejment bo`yicha xizmat ko`rsatish majburiyatini o`z zimmasiga oladi.

Franchayzingning asosiy printsiplari: franchayzerning "nou-xau"sini franchayzat kapitali bilan birlashtirish. Franchayz - litsenziya asosida biznes olib borish uchun ma`lum belgilangan miqdordagi badal.

Franchayzing tizimi o`zining afzallik tomoni va kamchiligiga ezga. Agar uni franchayzer kichik firma nuqtai nazaridan qargalganda, unda ushbu tizimning foydali tomoni quyidagilardan iborat: franchayzerning sotib olish uchun to`lagan to`lovi zaruriy kapitalni ta`minlaydi va kelajakdagi moliya bilan ta`minlash tashki zayomlarsiz amalga oshiriladi, shu bilan birgalikda bu tizim qandaydir yangilikni amaliyotda kichik tavakkalchilik bilan tekshirish imkoniga ega bo`ladi.

Kamchilik quyidagilardan iborat: franchayzer o`z daromadini ushbu tizim qatnashchilari bilan bo`lishadi, bu esa uning o`zining bo`linmalariga to`la ega bo`lgan firmalarga qaraganda daromad saviyasini pasaytiradi.

Franchayzer foydali tomoni franchayzata (kichik firma) nuqtai nazaridan shundan iboratki, kichik shakllagi bizneslar tashkil etish uchun kam kapital xarajat talab qiladi, bu esa yorqin ishbilarmon bo`lish uchun qo`shimcha imkoniyat yaratadi.

Xaridorlar uchun keng ma`lum bo`lgan firmaning va uning maxsulotining nomi franchayzatga ko`shimcha xarajatlarsiz avval bunyod etilgan tovarning "imidj"ini va oldindan tekshirib ko`rilgan shakllarini ishlatishga imkon yaratadi. Undan tashqari bosh firma kelajakda yangi kiritilayotgan texnik vositalar, texnologiyalar va reklama qiymatini bir qismini qoplash majburiyatini o`z zimmasiga oladi va barcha zaruriy xizmatlar ko`rsatadi.

Franchayzingni ikkita asosiy turi mavjud: tovarli va ishbilarmonli. Tovarli franchayzing franchaziatga xar xil tovar guruxlariga tegishli bir to`plam tovarni sotish bilan bog`lig

to'lanadigan xaq franchayziatlardan ma'lum sharoitlarda undirib olinadi. Ba'zi bir xolatlarda ushbu to'lovlar kafolatli xizmatga xaq to'lash bilan va birgalikdagi reklama xarajatlari bilan boglikdir.

Tovar franchayzingining muxim elementlari - bu franchayziatlardir. Ular ikkita vazifani bajaradilar; savdo korxonalarini barpo etish uchun kapital etkazib berish va ularga raxbarlik qilish.

Ishbilarmonga (ishchan) franchayzing xar xil turdagi va shakldagi xizmat ko'rsatish bo'yicha kelishuvlar to'zish yo'li bilan va biznesni berilgan xuquq, imtiyoz xamda tavsiya qilingan shaklda ma'lum vaqt davrida aniq joyda bajarilishi bilan amalga oshiriladi. Xorijiy davlatlarda shaxsiy korxonalarga davlat tomonidan maxsus imtiyozlar beriladi. Masalan, byudjetdan shaxar transportining ishini tashkil qilish va uni xarakat sostavini to'ldirish uchun mablag' ajratadi (yangi transport vositalari bilan). SHaxsiy korxonalar imtiyoz yoki xuquqdan foydalanganlari evaziga soliq to'laydilan.

Ishchanlik franchayzengi xaqidagi kelishuv franchayzer va franchayziatlar orasidagi munosabatlarni oxirgisiga (franchayziatlarga) quyidagi xizmatlar ko'rsatilishini aks ettirish mumkin, xizmatchilarni o'kitish, mutaxassislar tomonidan korxonaning ko'rilishi uchun maydon tanlash, asosiy fondlarni ijaraga topshirish yoki tayyor korxonani ekspluatatsiya qilish, xo'jalik faoliyati soxasidagi bilim va tajribalar bilan ta'minlab berish.

Franchayzing xususiylashtirishning birdan bir istiklol shakllaridan xisoblaiadi. U mulkni davlatda ma'lum shartlar evaziga sotib olishni va qandaydir tovarlarni yoki xizmatlarni ko'rsatish ishlab chiqarilishi sharti bilan beriladi.

Kichik va katta biznes korxonalari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda franchayzing tizimi

Xar qanday franchayzing tizimining asosiy vazifasi franchayzing shartnomasi xisoblanadi. O franchayzing va franchayziatlarning qonun va vazifalarini o'z ichiga oladi. SHu bilan birga qabul qilingan kelishuvga binoan xech qaysi bir tomon boshqa tomonning soliq va karziga javob berishga majbur emas. SHuning uchun shartnoma imzolanishdan avval franchayzing, franchayzer va franchayziatlarning asosiy vaziyatlarini chuqur ko'rib chiqishi kerak va uni imzolashdan avval omilkor mutaxassis bilan maslaxatlashish zarur.

SHartnomaning shu yoki boshqa bo'limlarining zarurligi, franchayzer yoki franchayziatlarni kelishilgan shartlar asosida majburiyatlarni bajarishlari bo'yicha aniqlanadi. SHartnoma to'zishda quyidagilar aniqlanishi shart:

Maxsulot sotish uchun franchayziatda texnik, franchayzerda esa xizmat ko'rsatish nmkoniyatlari bormi?

Raqobatchi maxsuloti bilan solishtirib sotish uchun taklif qilgan franchayzerning maxsuloti noyobmi?

Franchayziat uchun maxsulot tayyorlab beruvchi va aniq bir yordam ko'rsatuvchi, franchayz uning oldida qaysi darajada javobgar bo'ladi?

Korxonaning (franchayzerning) moliyaviy axvoli qaysi xolda, franchayziat kimning maxsuloti bilan savdo qilmoqchi?

SHu asosda ishlovchi boshqa korxona egalarining asosiy faoliyati va ish uslubi kanday?

Franchayzingda ishlab chiqarish bilan bog'lik bo'lgan va xar doim o'zgarib turuvchi texnologiya, imkoniyat va resurslar bormi?

Franchayzing shartnomasining davomiyligi kanday?

SHartnomani o'zgartirishga qanday shartlar va xarajatlar kerak?

Maxsulotni chet eldan keltirish qanday muddatda amalga oshiriladi, o'zilish xavfi yukmi, chet el valyutasida yuqotish mumkinmi?

Maxsulot narxiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'langan xolda import uchun boj quyiladimi va qandaydir qoida bormi?

Franchayzga keladigan, franchayziatning korxonaga (franchayzerga) to'lashi kerak bo'lgan litsenziya to'lovi pul miqdori qancha? (agarda u quyilgan bo'lsa). Bu pul miqdori

qoidaga ko'ra korxonaning reklamasi uchun doimiy xarajatga, maxsulotni olg'a siljishi uchun tadbirlar uyushtirishga sarflanadi.

Franchayzing shartnomasini tugatishdan avval quyidagi savollarni xal qilib olishlari shart: o'z ishini qarindoshlariga meros qilish imkoniyati; korxona turar joyini o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi; tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishning maqsadga muvofiqligi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Moliyaviy resurslar va moliyaviy kapitalning mohiyati va to'zilishi
2. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlash va uning shakllari.
3. Kichik biznesda franchayzing tizimi
4. Franchayzingning asosiy turlari va qoidalari
5. Kichik korxonalari o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda franchayzing tizimi

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Aylanma fondlar, muomila fondlari, nomoddiy aktivlar, savdo krediti, moliyaviy kompaniyalar, venchurli kapital, annuitet, guruhli annuitet, kredit, tijorat krediti, iste'molchi krediti, firma krediti, faktoring, overdraft, franchayzer, investor, franchayzing, franchayzingli kompaniyalar, franchayz.

9-MAVZU: TADBIRKORLIKDA MARKETING FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLAGI

REJA

1. Marketing tushunchasi va mohiyati, uning asosiy tamoyillari.
2. Tadbirkorlikni rivojlantirishda marketingning ahamiyati.
3. Marketing tadqiqotlarini tashkil etish.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIETLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. O'zbekiston.T-1999 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida. O'zbekiston.Toshkent 1998 yil.
3. Gulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'zbekiston.T-1997 yil.
4. Yo.Abdullaev, F.Karimov "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" Toshkent "Mexnat" 2000 yil.
5. Soliev A.,Usmonov A. Marketing -T: O'kituvchi ,1997
- 6.Abdullaeva SH., Nosirov P. Marketing - bozor iqtisodiyoti asosi,T: Mexnat,1994.
7. Qosimova M.S., Axmedov O.M., Yodgorov M.X., Marketing tadqiqoti. - T.: O'kituvchi, 1998

1. MARKETING TUSHUNCHASI VA MOHIYATI, UNING ASOSIY TAMOIYILLARI.

Marketing - bu zaruriyatni va ehtiyojni ayirboshlash orqali kondirishga qaratilgan inson faoliyatining turidir.

Marketing vujudga kelishini asosiy sabablaridan biri, bu ishlab chiqarishni qo'ldan va xajmini ortib borishi, yangi tarmoqlarni vujudga kelishi, tovar turlarini ko'payishi va tadbirkorlar o'rtasida maxsulotni sotish muammosini vujudga kelishidir.

Marketing (inglizchadan market - bozor) - bu mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlab toki uni sotishni tashkil etilishigacha bo'lgan majmuaviy tizimdir. U aniq xaridorlarni talabini qondirish, bozorni o'rganish va oldindan ko'ra bilish asosida foyda olishga mo'ljallangan.

A. Xosking aytishi bo'yicha marketing - bu biz sotishimiz mumkin bo'lgan mahsulotni sotish emas, balki sotiladigan mahsulotni ishlab chiqarishdir.

Marketingni asosiy maqsadi - bozorni har tomonlama o'rganish, taxdil qilish va konstruktura o'zgarishini oldindan bilish asosida yuqori foyda olishdir.

Marketing - firmaning o'zok muddatli, yuqori darajali foyda olishi niyatida faqat iste'molchiga qaratilgan maqsadli ishlab chiqarish va sotish faoliyati xisoblanadi. Marketingning asosiy ob'ektlari bo'lib bozor, tovar, xizmat, baxo, tovar xarakati, reklama, sotish, uni rahbatlantirish xisoblanadi.

Marketingning asosiy sub'ektlari esa quyidagilardan iborat: ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, iste'molchi tashkilotlar, ulgurji savdo, chakana savdo, pirovard iste'molchi, marketing bo'yicha mutaxassislar.

Marketing vazifasi - bu tadbirkorlikning muhim vazifasi korxonani ishlab chiqqan tovar va xizmatini almashuv jarayoni bilan bog'liq boshqaruv tizimi.

Kichik biznesda xaridor va xo'jalik yo'rituvchi sub'ektlar munosabatlari majmuasi bo'yicha javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri marketing tizimiga hisoblanadi. Echliladigan masalalarga asosan marketing vazifasi bir necha kichik vazifalarga bo'linishi mumkin. (22.2chizma).

Vazifa{masala}	Kichik vazifa
1. Bozor talabini to'la hisobga olish.	Marketing izlanishi
2. Ishlab chiqaraladigan maxsulotni muqobil assortimenini aniqlash.	Mahsulot chiqarish va mahsulot turini rejalashtirish bo'yicha siyosat ishlab chiqish
3. Xaridor uchun mahsulot narxini aniqlash.	Narx siyosati.narx belgilash
4. Tovarni etkazib berish.	Taqsimlash.Taqsimlash kanalini-tanlash va boshqarish.

22.2-chizma. Marketingning kichik vazifalari.

Marketingning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Bozorni o'rganish va iqtisodiy konstruktura;
2. Bozor segmentatsiyasi;
3. Ishlab chiqarishni tezkorlik xarakati;
4. Innovatsiya;
5. Rejalashtirish.

Bu tamoyillarni birma bir ko'rib chiqadigan bo'lsak, bozorni chuqur va xar taraflama o'rganish bozor extiyojlari, bozor xolatini o'rganishni ko'zda tutadi. Narx siyosati, bozor sigimi, tovarlarning iste'mol xususiyatlari.yu savdoni tashkil qilish, sotish kanallari, talabni shaqllantirish va sotishni rahbatlantirishni taxlil qilish kerak bo'ladi.

Segmentlash xarakatning samaradorligi va maqsadga qaratilganligini oshiradi, keladigan bozor segmenti, iste'molchilarning aniq guruxini aniqlash kerak. Ishlab chiqarish va sotishning faol va salohiyatli extiyoj talabiga epchillik bilan javob berish korxona ishlab chiqarish-sotish faoliyatini bozor xolati va aniq iste'molchilar extiyojlariga oglik xolda boshqarishning jadalligi va moslashuvini ko'zda tutadi.

Yangilik kiritish- zamonaviylashtirilib yangilangan tovarning doimiy takomillashuvi yangi tovarlar, yangi texnologiyani yaratish va ilmiy- tadqiqot va konstruktorlik ishlarida yangiliklar kiritishni ko'zda tutadi.

Rejalashtirish- moslashish tamoyilining mantiqiy davomi va ko'shimchasi bo'ladi. Bu tamoyil bozor va xolatiy bashoratlarni ishlab chiqarishga asoslangan marketingning ishlab chiqarish- sotish dasturlarini ko'zda tutadi.

Marketing tadqiqotlar - bu tovar va xizmatlarni ayirboshlash va ishlab chiqaruvchining sotish bilan bog'liq barcha ma'lumoti va muammolarning maqsadli to'plamini taxdil qilishdir. Marketing tadqiqotlari muayyan tovar bozorining mavjudligi va uni egallash hamda mustahkamlanib qolish kabi savollarga ko'proq amaliy javob beradi. (A. Xosking). Marketing tadqiqotini o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- masalani qo'yilishi va firma oldida turgan muammolarni aniqlash;
- tadqiqot maqsadlarini aniqlash va xarajatlarning qiymatini baholash;
- axborot to'plash va uni turkumlash;
- dastlab berilgandan, so'ng hisoblanganlarni taxdil qilish;
- tavsiyanomalarni ishlab chiqish.

Marketing tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari - bozorni o'rganish va marketing majmuasining asosiy elementlarini, tovarni, tovar narxini, tovar xarajatini va sotishni rahbatlantirish natijalarini taxdil qilish. Marketing tadqiqotlari natijasida olingan axborot tadbirkorlar uchun xo'jalik strategiyasini ishlab chiqishda va amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega. Uni marketingni boshqaruvchini vazifalari asosida ishlatilishi A. Xosking tomonidan bir necha omillarini hisobga olib keng tasvirlangan: ya'ni:

- xaridorlar talabini bir xilga keltirish;
- xaridor bozorini tavsiflash;
- xaridorning xulqi va xarajat imkoniyatlarini o'rganish;
- sotish va pullashni o'zgarishi;
- reklama xarajatlari va ularni o'zgarish yo'nalishlari;
- tovarni harakatlantirish tadbirlari;
- bozorni kengaytirish imkoniyatlari;
- xaridorni kengroq va aniqroq tavsiflash (ya'ni yoshi, oila tarkibi, daromadlar saviyasi ma'lumoti, jug'rofik taqsimlanishi, o'zoq muddat ishlatiladigan tovarga egaligi, ular qayerda va qanday sotib olinadi, axborot qanday vositalar bilan olingan va boshqalar);
- asosiy raqobatchilar tomonidan egallangan bozor qismi;
- taqsimlanish tarkibi;
- bozor holatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy kuchlarni aniklandi;
- tovarlarni va ularni sezilishini o'rganish;
- mahsulot belgisi (markasi);
- tovarni joylashtirish;
- shakli, o'lchamlari, himoyalash xususiyati, yorliqlari va etiketkalarining turlari;
- xizmatlar, reklama, aloqa yo'llari, sotilishda izlanishlar;
- taqsimlash, narx va sotib olishga qiziqtirish;
- eksport bozorlari.

Tadbirkor tomonidan qabul qilinadigan marketing harorlarni ko'pchiligi kelajakda paydo bo'ladigan hodisalarni baholashga asoslangan.

Marketing asosida bozorni xar taraflama o'rganish yo'nalishlarining asosiylaridan quyidagilarni ko'rsatib o'tish zarur:

- a) talabni o'rganish;
- b)bozor tarkibini o'rganish;
- v)tovarni o'rganish;
- g)raqobat sharoitlarini tadkik etish;
- d)sotish shakli va uslublarini tadkik etish.

Bozor talabi o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lgaanligi uchun, unga demografik, umumiqtsodiy, ijtimoiy, madaaniy, psixologik va boshqa omillar ta'sirini xisobga olgan xolda, bozorda axolining soni, jinsi, yoshi, daromadi, maxsulot sifati va narxigacha taxlil qiladi.

Xar qanday firma iqtisodiyotda samarali xarakat qilishi, o'zining oldiga qo'ygan maksadlariga erishishi uchun o'zi marketing strategiyasini tanlab olishi lozim.

Marketing strategiyasi deganda, korxonaning imkoniyatlarini bozor talabiga muvofiqlashtirib borish tushuniladi. Marketing strategiyasi bozorni tadkik qilish va istikbolni belgilash, talab va iste'molchilarni xamda raqobatchilarni o'rganish asosida ishlab chikiladi.

Bozorni o'rganish , bilish va ishlab chiqarishni boshqarish bugungi kunga kelib, xar bir tadbirkorning eng asosiy vazifaalaridan birinchi bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilganligi, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan qo'plab firma va korxonalar uchun ishlab chiqarishni boshqarish, maxsulotni sotish yo'llarini, maqsad va vazifalarini marketing asosida taxlil etishi uchun sharoitlar yaratildi.

2.TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNI AXAMIYATI.

Kichik biznesdagi xo'jalik yo'rituvchi sub'ektlar har doim xaridorni mo'ljal qilib quyidagi savollarga javob topishlari kerak: qancha qay darajada sifatli? Nimadan? qachon mahsulot ishlab chiharilishi kerak? Bundan ma'lumki kichik tadbirkorlik tarkiblari soni, sifati, fazoviyiligi va vaqt o'lchamlari bo'yicha cheklangan.

Ular bozorni egallash uchun amalga oshirayotgan xo'jalik operatsiyalarining xarajatlarini xaridorlar uchun olib boriladigan raqobat kurashida yutib chiqish uchun kamaytirib borishlari zarur. Natijada potentsial xaridor uning taklif etgan tovarini xarid qiladi. Bu muammoni echishda marketing muhim dastak hisoblanadi.

Biznes muammosini keng qulayliligi va ko'p ro'yxatligi shu jumladan uning kichik shakllarini, bir qator maqsad muammolarini ishlab chiqarish jarayonida, sotishda, reklama ishlarida ko'yishi va echilishini ko'zda tutadi.

Klassik iqtisodiy nazariyotchilar jamiyat boyliklari (er, kapital va mexnat) ichidan eng muximi - tadbirkorlik faoliyatiga aloxida e'tibor berganlar. CHunki tadbirkorlik va marketing bir biri bilan chambarchas bog'lik xamda uyg'unlashgan tushunchalardir.

Tadbirkorlik (biznes)- iqtisodiy faoliyat bo'lib, ma'lum bir ishni yoki xunarni foyda olish maqsadida tashkil qila bilish va uddalay olish demakdir.

Ko'pchilik Evropa mamlakatlari va Yaponiyada kichik va o'rta korxonalarning davlat byudjetiga qo'shayotgan xissalari 70 foizgacha, iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini tulgazishda esa undan xam ko'prok. Buning asosiy sababi, kichik va o'rta korxonalarning o'ta tashabbuskorlik bilan, bozordagi xar qanday o'zgarishlarga tezda moslashish xususiyatlaridir.

Respublikamizda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha birmuncha ishlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbyokiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati to'g'risida" qonun , Prezidentimiz I.A.Karimovning bir necha farmonlari va Vazirlar Maxkamasining qarorlari qabul qilindi. SHu jumladan, 26 iyul' 1995 yilda, Vazirlar Maxkamasi "Xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni

qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes fond) tashkil etish xamda uning faoliyati masalalari to'g'risida" qaror qabul qildi.

3. MARKETINGNING TADQIQOTLARINI TASHKIL ETISH.

Xozirgi zamon bozorida muvaffakiyatga erishish, ilmiy texnika natijasida firmaning ishlab chikarish, moliyaviy va texnologik salohiyati bilan emas, balki marketing tadkikotlari o'tkazishdagi faollik, tashabbuskorlik va tajribasi bilan aniqlanadi degan fikr- muloxazalar xukm surmoqda. Buni tasdiklovchi xaqiqat shuki, keyingi 10- 15 yilda marketing tadkikotlari amonaviy biznesning katta mustaqil soxasiga aylanib ketdi. Ma'lumotlarga ko'ra 50 foizdan ko'p amerikalik, 86 foiz evropalik va 60 foiz Yaponiya biznesmenlari, firma va kompaniyanlari marketing tadkikotlari o'z kuchlari bilan olib borildilar. Qolganlarga esa maxsus tadqiqot muassasalariga murojaat qilishadi. Xozir marketing tadkikotlari bilan juda ko'p ilmiy - tekshirish byurolari, firmalari, agentliklari, universitetlari, davlat muassasalari shug'ullanmoqda. Masalan, Garbiy Germaniyada 120 dan ko'prok 3 ming kishilik ilmiy xodimlari bo'lgan tashkilotlar marketing tadkikoti olib bormoqda. Frantsiyada bunday muassasalar 100, Angliyada 200, AKSH da 800 dan ko'prok ublib, bir yilda 1 milliard dollar atrofida mablag' aylantiradi.

Marketing tadkikotlariga shunday qiziqishning asl ma'nosi - bozorda raqobat shaklining o'zgarib borishi va axoli talabiga ilmiy- texnik yutuqlarning katta ta'sir o'tkazishidir. "Baxolar urushi" deb atalgan 30- 60-yillardagi raqobat uslublari O'RNini maxsulotning tayyorlanish sifati, assortimentining tez o'zgarishi, sotishdan keyingi servis va texnika xizmat ko'rsatishlar egallamoqda.

Bozorni segmentlarga ajratish - uning iste'molchilarini maxsus guruxlash demakdir. Marketing amaliyotida bozorni segmentlarga bo'lishda uch xil yondashish ishlab chikilgan. Birinchi- ommaviy bozor. Korxona unga kirishda, keng xaridorlar ommasiga qaratilgan bir marketing dasturlariga ega bo'ladi.

Ikkinchidan- segmentlashgan bozor. Korxona unda, asosiy e'tiborini aloxida belgilariga ega bo'lgan bir xil segmentlarga qaratadi. Ana shu segment uchun maxsus dastur ishlatiladi. Uchinchi- ko'pchilik ko'rsatkichlari bilan tabaqalashgan bozor. Bunda o'z xususiyatlari bilan farqlanadigan bir yoki ikki xil segmentga alixida ishlab chiqiladi. Bozor segmentlari doimiy emas. Xar doim korxona o'zining imkonyatlari va maqsadlariga mos xolda bozorni quyidagi segmentlarga bo'lish mumkin. Masalan, iste'mol tovarlari bozorida quyidagi segmentlar mavjud: -xaridorlar segmentlari (istemolchilar, ularning talablari, xatti- xarakatlari va boshqa belgilar); -tovarlar segmentlari (ommaviy va arzon, qiymat va maxsus kundalik, yangi va xokazo); -savdo segmentlari (tovar xarakati, sotish usullari va boshqalar); geografik segmentlar (iqtisodiy rivojlanish daradjasi buyicha tuman, shaxar, viloyatlar) axoli soniga va joylashishiga qarab bulinadi.

Amaliyotda albatta bozorni yuqoridagi va boshqa belgilariga qarab segmentlanadi. Ammo, xamma vaqtda, segmentlar orasida tafovut ajralib turishi, aksincha xaridorlarda esa o'xshashlik bo'lishi shart. Korxona o'zi tanlagan segmentlari xususiyatlarini va talablarini ulchay olishi va ularga chiqish yo'llarini egallashi lozim. Segmentlar keraklicha keng xajmli va kelajagi porloq bo'lishi kerak.

Iste'molchilar sifatida, bozorda ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana savdo, davlat va boshqa notijorat muassasalari qatnashishlari mumkin. Iste'molchilarning asosiylari- tovarlar va xizmatlarning shaxsiy va oilaviy extiyojlarini qondirish uchun xarid qiluvchi kishilardir.

Marketingda tadkikotlar o'tkazish va segmentlashning asosiy maqsadi ana shu iste'molchilarni bozordagi xatti- xarakatlarini chuqur o'rganib, ularning obrazini (modelini) yaratish va kelajakdagi extiyoj (talab) larini tasavvur qilishdan iborat.

Marketing kontseptsiyasi (tamoyili) ga asosan, xar qanday korxona, bozorda muvaffakayatga erishish uchun eng avvalo ista'molchilar tilak- istaklarini nazarda to'tish kerak. Bu esa iste'mol jarayonini, axoli extiyoji va talabini bilish va ularga mos tushadigan tovarlar va xizmatlar taklif etishini taqozo qiladi.

Marketing nazariyasi va amaliyoti iste'molchilar talablarini o'rganishda, ularning ijtimoiy- iqtisodiy va demografik tavsiflariga ko'ra (daromad, yashash joyi va sharoiti, oila tarkibi, jinsi, yoshi, mashg'uloti va boshqalar) darajalab turlarga bo'lish uslubini ishlab chiqqan. SHu bilan birga iste'molchilar xatti- xarakatini psixografika asosida taxlil qilinishi (qiziqishlari- xobbi, yangiliklarga progressiv va konservativ qarashlari, xayotiy mujizalar to'g'risidagi fikrlari va boshqalar) orqali, ularni emperik turlarga ajratish keng rivojlanmoqda. Natijada iste'molchilar, ijtimoiy- iqtisodiy va demografik o'xshashlariga qarab "Modani kuruvchilar", "programmachilar", "nafosatshunoslar", "texnikasevarlar" va boshqalarga bo'linadi.

Bozorlarni segmentlashda uslubiy va axborot to'plash xamda turlarga bo'lish asosi bo'lib PANELLÈ o'rganish xisoblanadi. Iste'molchilar panelli- oldindan tayyorlangan dastur asosida doimo ko'zatiladi boriladigan tanlama iste'molchilar guruxi (oilalar) yoki qishloq, maxalla, ovul, tuman va shaxar bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlkatlarda iste'molchilarning madaniy saviyasi yuqorilashib borgan sari, ularning o'z xuquqlarini bozorda ximoya qilishlari uchun kurash xam kuchayib bormoqda. "Kons'merizm"- deb ataluvchi ana shunday ittifoklar 60- yillarda vujudga keldi. Ular bozorda paydo bo'lib qolayotgan, tekshirilmagan dorilar, sabzavot, poliz ekinlari va xokazolarga qarshi kurashmoqdalar. Xozir iste'molchilar xuquqini ximoyalash kurashi keng rivojlangan. Ularning talablari bilan iste'molchilarga atalgan jurnallar, reklama, maslaxatlar, tovarlarni ekspertiza qilish va sifatsiz maxsulot ishlab chiqaruvchilarni javobgar qilishgacha bo'lgan tadbirlar amalga oshirilmoda.

Ana shu xarakat qatnashchilari talabi va ta'siri natijasida 1985 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Assambleyasi "Iste'molchilarni ximoya qilishga oid quyidagi raxbarlik talablarini" ishlab chiqdilar:

zararli tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga milliy va xalqaro miqiyosda qarshi kurashishda mamlakatlarga yordam berish;

iste'molchilarga bozorda past narxlar bilan ko'p miqdorda tovar taklif etish sharoitlari yaratilishini rag'batlantirish;

tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar orasida iste'molchilarga yuqori darajada estetik (nafosatli) munosabatda bo'luvchilarni aloxida siylash.

Bu talablar iste'molchilar salomatligini va xavfsizligini ximoya qilishga qaratilgan. Xozir istemolchilar Ittifokining xalqaro tashkiloti mavjud. Unga 70 davlat a'zo bo'lgan.

O'zbyokistonda xam iste'molchilar xuquqini ximoya qilish bo'yicha qonun loyixasi ishlab chiqildi va muxokamaga quyildi.

4.BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Marketing tashkil etish deganda uning vazifalarini bajaruvchi tarkibiy bo'linmalarining to'zilishi va ularning o'zaro ma'suliyatlarini xamda bog'liqliklarini ifodalovchi tizimni yaratish tushuniladi. Bunday tizim oddiy firmadan tortib bozorda ishtirok etaetgan barcha sub'ektlar, davlat yoki nodavlat, tijorat yoki notijorat, tuman, shaxar, viloyat va respublika mikesida faoliyat ko'rsataetgan muassasa va tashkilotlarda to'zilgan marketing xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Marketing xizmati vazifalari uning o'ziga xos tamoyillari asosida kelib chiqadi. Bundan quyidagilar kiradi: korxonalarda ishlab chiqarilgan maxsulotlar va bozor xaqidagi axborotlarni to'plash va taxlil qilish, korxonaning maxsulot ishlab chiqarish savdo va xo'jalik faoliyatini reklama qilish, moliyaviy va boshqa jixatlari bo'yicha manfaatlarga mos qaror qabul qilish uchun zarur xisob- kitob ko'rsatkichlarini tayorlash; talab shakllanishini faollashtirish va sotishni tezlashtirish

Marketing xizmati korxonalarda ixtsodiy axvol o'zgarib boraetgan bozordagi iste'molchilarning talabi bilan korxona ishlab chiqarishi savdo va xo'jalik faoliyati munosabatlarini muvofiqlashtirish uchun tashkil qilinadi.

Marketing xizmati bu bozor iqtisodietiga o'tish sharoitida korxona boshqaruvi uchun etishmay turgan shunday bir faoliyati turiki, u ishlab chiqarish moliya, savdo, xo'jalik, texnologik kadrlar masalasi va boshqa soxalarda bozor zaxiralarini kondirish va foyda olishga asoslang va yo'nalishlar jaraenini yaratadi.

Bozor sharoitida xaridorga bo'lgan e'tibor katta axamiyatga ega bo'lib, marketingning ustunlaridan biri xisoblanadi. Marketing faoliyati murakkab jarayondir.

Korxona (firma, birlashma, va x.k.lar) bozorda o'z o'rnini egallab, uni mustaxkamlashga, maxsulotining raqobatbardosh va xaridogir bo'lishini xamda olaetgan daromadining xajmi oshishini maksad qilib qo'ygan bo'lsa, marketing faoliyati doim to'g'ri va sifatli olib borilishi lozim.

Korxonada marketingning asosiy maqsadi Berilgan vaqt chegarasida va faoliyati mablag'lar bilan ta'minlanishi doirasida rentabellikni ta'minlash va belgilangan xo'jalik xisobidagi foydani olishdan iborat.

Marketingni tashkil etishda ikki jixat muxim: maqsadlar va marketing xizmati maqomi e'tiborga olinadi.

Maqsadni tanlash. Ko'pgina raxbarlar xozirgi paytda o'z korxonalarining asosiy maqsadi sifatida eng yuqori foyda olishni ko'rsatadilar. Lyokin bu tanlov unchalik maqbul emas. Aytalik, agar korxona o'zok kelajakni ko'zlab ish yuritayotgan bo'lsa (marketing faoliyati aynan mablag'ni NIOKRga, asosiy sarmoyaga, ishlab chiqarish tayyorligiga va kadrlar malakasini oshirishga sarflashi kerak. Bu tadbirlarning xammasi ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytiradi va foydaning kamayishiga olib keladi. Katta foyda olish xaqida xam, yakin kelajakda foydani ko'paytirish xaqida xam xamisha gapiravermaslik kerak. Masalan, agar korxona yangi bozorga kirib bormoqchi bo'lsa, avval boshda xech qanday foyda olmasligi, aksincha, ko'pincha xatto zarariga ishlashi mumkin. bundan tashqari, ko'pgina mamlakatlarda qabul qilingan foydaga qarab soliqning ortib borishi korxonaga rejalab qo'yilganidan ortiqcha foyda olish maqbul emasligini isbotlaydi. Yaponiyadagi mashxur "Matsusita Denki" firmasining asoschisi Konosuke Matsusitaning fikricha, faqat unchalik yuqori emas, unchalik kam xam emas, balki oqilona miqdorda foyda olgandagina korxona o'z faoliyatini kengaytirishi mumkin.

Marketing tashkil etishga kirishgan korxonaning maqsadlari qanday bo'lishi kerak? Marketingning tan olingan peshqadamlari bo'lmish yaponlar tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, asosiy maqsadlar (afzalligi tartibiga qarab) quyidagilardan iborat:

-sotish xajmi

-o'sish sar'atlari (sotuv yoki foyda xajmi);

-bozordagi xissasi;

-rejadangan foyda, bu foydaning xajmi, foydaning sotuv xajmiga nisbati, barcha sarmoyaga foyda me'yori, foydaning xissadorlik sarmoyasiga nisbati va boshqalarda aks etishi mumkin;

-sarmoyaning tarkibi, ya'ni faollarning umumiy summasiga yordam shaklidagi sarmoyaning nisbati (bu Yaponiyada taxminan 20% ga teng).

Bu ro'yxatni boshqa turlicha maqsadlar bilan xam to'ldirish mumkin. Masalan, maxsulot sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va shu kabilar.

Maqsadlarni ishlab chiqishda ular korxona xodimlarining niyyatlarini aks ettirishi zarurligiga aloxida e'tibor berish kerak. Aks xolda ishlovchilarning ishlab chiqarish jarayonidan "ichki o'zilish" ruy beradi. Xar bir yapon ishchisi o'zi ishlaytgan firmaning vazifalarini osongina aytib bera oladi, chunki bu vazifalarning bajarilishidan u nixoyatda manfaatdor.

SHuni anglash mumkinki. Korxonada marketingning chinakamiga joriy qilinishi uchun unda tegishli xizmatni to'zishning o'zi etarli emas.

Marketing bo'limi diqqat markaziga maxsulotning pirovard iste'molchilari bilan bog'lik barcha muammolar tushadi. Bu paytda boshqa bo'linmalar o'z e'tiborini turli jo'z'iy vazifalarga karatgan bo'ladi. shuning uchun xam marketing bo'limi bilan faoliyatni muvofiqlashtirib turishini tan olish mutlaqo tabiiydir. U ishlab chiqarish jarayonida etakchi bo'lishi uchun uning maqomini boshqa bo'linmalar ichida eng yuqori qilib belgilash lozim.

Korxona (firma, birlashma va xokazolar) bozorda o'z O'RNini egallab, uni mustaxkamlashga, maxsulotning raqobatbardosh va xaridorgir bo'lishini xamda olayotgan daromadining xajmi oshishini maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, marketing faoliyati doim to'g'ri va sifatli olib borilishi lozil.

Takrorlash uchun savollar:

1. Marketing tushunchasini mazmuni nimadan iborat?
2. Marketing tushunchasini tadbirkorlik tushunchasi bilan bog'likligi va farki nimadan iborat?
3. Marketingni maqsadi nimadan iborat?
4. Marketingning asosiy tamoyillarini mazmunini aytib bering.
5. Korxonalarda marketing faoliyati qanday tashkil etiladi?
6. Marketing tadqiqotlari qanday tashkil etiladi?

Tayanch iboralar

Marketing, konversion marketing, remarketing, sinxron marketing, rahbatlantiruvchi marketing marketing kontseptsiyasi, marketingni anglash kontseptsiyasi, mahsulot belgisi (markasi). Bog'liq segmentatsiyasi, innovatsiya, talab, rejalashtirish, taklif, marketing strategiyasi, muxtojlik, marketing muxiti, extiyoj, narx, marketingni tashkil etish, marketing xizmati.